



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS

HELSINKI

universalconference.us

INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS

Volume 02, Issue 08, 2025 (28-SEPTEMBER)

Editor in Chief

Dr. Rajeev Ojha - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

Editorial Team

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor, REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

Prof. Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRs, FIAPS, FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

RESEARCH INFO FOLK BOOKS IN THE WORK OF FRATERNAL PEOPLES

Rahmatova Dilfuza Ahmedovna,

Axrorova Mahina Avazovna

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti o'qituvchilari

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Saidova Shoxista Alisher qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Samarqand filiali magistranti

E-mail: dilfuzaahmedova73@gmail.com

[Tel: \(91\) 530 18 73](tel:+998915301873)

ABSTRACT

Folklore the beginning of the art of words, has been a constant companion of people's life in every era. In the second half of the 19th century, Nurota and Bulungur schools, which were the major centers of folk art appeared. In the research, it was noted that V. Abdullayev wrote many such works of oral creativity among the Uzbek, Turkmen, Karakalpak and Kazakh peoples in the 18th-19th centuries and had a positive impact on the development of written literature. It is reflected that the scientific-theoretical views on the nature of folk books, which are considered a common phenomenon of folk studies, served as the result of the first researches in the history of Uzbek literary studies.

Key words: folklore, folk books, epic, dialect, songs, repertoire terms

Аннотация: Фольклор являющийся началом речевого искусства был постоянным спутником жизни людей во все эпохи. Во второй половине XIX века появились школы Нурота и Булунгур являющиеся крупными центрами народного творчества. В своем исследовании В. Абдуллаев отметил что в XVIII - XIX веках узбекского туркменского, каракалпакского и казахского народов существовало множество произведений этого вида устного творчества, что положительно сказалось на развитии письменной литературы. Отражено, что научно-теоретические взгляды на природу народной книги считающиеся обычным явлением фольклористики поступили результатом первых в истории узбекской рекламологии исследований.

Ключевые слова: фольклор, народные книги, эпический диалект, бахши, репертуар, термины

Annotatsiya. So‘z san’atining boshi bo‘lgan fol’klor har bir davrda xalq hayotining doimiy yo‘ldoshi bo‘lib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmida xalq ijodining yirik markazi bo‘lgan Nurota va Bulung‘ur maktablari paydo bo‘lgan. Ushbu tadqiqotda V.Abdullayevning XVIII-XIX asrlarda o‘zbek, turkman, qoraqalpoq va qozoq xalqlari orasida og‘zaki ijodning ana shu xildagi asarlari ko‘plab yaratilgani va yozma adabiyotning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani ta’kidlangan. Olimning ham adabiyotshunoslik, ham fol’klorshunoslikning mushtarak hodisasi sanaluvchi xalq kitoblari tabiatiga doir ilmiy-nazariy qarashlari o‘zbek adabiyotshunosligi tarixidagi ilk izlanishlar samarasi bo‘lib xizmat qilganligi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: fol’klor, xalq kitoblari, doston, dialekt, baxshilar, repertuar, termalar

Kirish (Introduction). O‘rta Osiyo xalqlarining XVIII-XIX asrlardagi haqiqatan ham juda og‘ir bo‘lgan hayotiga nazar tashlasak, xalqning ijodiy faoliyati mutlaqo so‘nib qolmaganligini, uning yuz minglab zo‘r aqllardan tashkil topgan tiyran tafakkuri doim toshqin daryo suvlaridek olg‘a tomon intilganligini ko‘ramiz.

Avvalo shuni aytish lozimki, so‘z san’atining boshi bo‘lgan fol’klor har bir davrda xalq hayotining doimiy yo‘ldoshi, eng ilg‘or, eng g‘oyaviy adabiyot bo‘lib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmida xalq ijodining katta maktabi bo‘lib, Jassoq baxshi, Kichik Bo‘ron, Qo‘ldosh shoir, Suyar shoir, Xo‘janazar baxshi va Jumanbulbul kabi mashhur xalq shoirlarini yetishtirgan Nurota va Bulung‘ur fol’klorning yirik markazi bo‘lgan. Mashhur olim B.M.Jirmunskiyning fikriga qaraganda, baxshilarning Nurota maktabi vakillari romantik dostonlarni, “xalq romanlari”ni kuylashga, Bulung‘ur maktabi vakillari esa qahramonlik dostonlarini kuylashga e‘tibor berganlar [1.76].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review) . Bu davrda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi sohasida chinakam yuksalish yuz berdi. Xalq dostonchiligining go‘zal namunalaridan biri bo‘lgan “ Ravshan” dostoni Jumanbulbulning o‘zi tomonidan ijod etilgan degan fikr ilgari suriladi. O‘rta Osiyoni kezib chiqqan vengriyalik sharqshunos G.Vamberi el ichida mashhur bo‘lgan “Yusufbek va Ahmadbek”, “Tohir va Zuhra” kabi xalq kitoblari-xalq romanlari haqida quyidagilarni yozgan edi : “ O‘zbekistonda bunday romanlar son-sanoqsiz darajada ko‘p bo‘lib, o‘zbeklar, asosan shu xildagi asarlarni g‘oyat sevadilar... Bunday asarlardan o‘zbeklarning milliy his va iftixorini, mardlik va qahramonligini aks ettiruvchi ko‘pgina manzaralarni topish mumkin” [2.336] .

Bu davrda O‘rta Osiyo xonliklari bo‘ylab “Alpomish” dostoni va “ Go‘ro‘g‘li “ turkumidagi epik qissalar keng tarqaldi. ”Tohir va Zuhra” , “Yusuf va Zulayho”, “Bahrom va Gulandom”, “Gulfarah”, “Sanobar” ,”Bo‘zo‘g‘lon” yoki “Yusufbek va

Ahmadbek” kabi o‘nlab xalq kitoblari mehnatkash ommaning hamdard do‘sti, ruhiy ozig‘i sifatida katta shuhrat topdi. Ularda insonparvarlik, erksevar, vatan va el-yurtga muhabbat, xalqlar do‘stligi ,tinchliksevarlik, qahramonlik kabi xalqqa xos bo‘lgan ajoyib fazilatlar ulug‘landi. Bu kitoblarning ko‘plari xalq qalbiga singib ketgan bo‘lib ,to‘y va ma‘rakalarda ommaviy sayil va yig‘inlarda qayta-qayta kuylangan , ishtiyoq bilan o‘qilgan O‘rta Osiyoning turli joylarida kotiblar, savodli kishilar tomonidan ko‘p nusxalarda ko‘chirilgan. XVII-XIX asrlarda turkman, qoraqalpoq va qozoq xalqlari orasida og‘zaki ijodning ana shu xildagi asarlari ko‘plab yaratildi va yozma adabiyotning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bu davrlarda “Tohir va Zuhra “ ning XVI-XVII asrlarda yashagan Sayyodiy taxallusli shoir yozgan variantidan boshqa noma‘lum mualliflar yaratgan variantlari ham vujudga keldi [V.Abdullayev. “Saylanma”. 56-bet] Vohid Abdullayev Maxtumquli she‘rlari, uning nasihatlari o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham yashab kelayotganligi, xorazmlik Qurbonnazar Abdullayev-Bola baxshi, mashhur qoraqalpoq baxshisi Xudoybergan O‘taganov , samarqandlik Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, mashhur qoraqalpoq xalq shoiri Qurbonboy Jirov, Tojiboyev va boshqalar Maxtumquli she‘rlarini xalq o‘rtasida maroq bilan kuylab kelayotganligini keltirib o‘tadi. Shu faktlarning o‘ziyiq Maxtumquli she‘rlarining o‘zbek xalqi dilidan qanchalik chuqur joy olganligini ,keng shuhrat topganligini isbot etadi. Vohid Abdullayev “Yangilik yarashadi” maqolasida o‘tmish donishmandlarimiz orzu-umid qilib bunyod etgan Farhod, Majnun, Tohir, Alpomish, Qorajonlarning qiyofalarida zohir etilmish botirlik, bahodirlik, donolik, hunarmandlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, pahlavonlik, alp-arsonlik, nuktadonlik kabi fazilatlarni sevib o‘rganganimizni, kishilarimiz ana shu an‘anaviy odatlarimizni ardoqlab , bu an‘anaviy fazilatlarga o‘zimizning fazokorlik, olovkorlik, azmkorlik, tezkorlik, fidokorlik kabi yangicha bunyodkorlik fazilatlarni qo‘shilganligini ta‘kidlab o‘tadi. Olim voqealarning xalq dostonlari, hikoyalari va ertaklariga xos uslubda bayon qilinishi, til va uslub ravonligi, bu asarlarning xalq kitoblari bo‘lib qolishini, chinakam xalqchilligini ta‘minlagan muhim omillar ekanligi, ana shuning uchun ham bunday asarlar adabiyotimiz tarixida xalq kitoblari nomini olganligi, ular ikki ijod bo‘g‘inining mevasi, xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga o‘tgan yodgorliklar bo‘lganligi uchun fol‘kloristikaning ham, adabiyot tarixining ham asosi sanalishini ta‘kidlab o‘tadi[3.130].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) . Qator o‘zbek shoirlari boy fol‘klor materiallari asosida original epik asaplar yaratganlar. Shoirlar xalq ijodidagi tayyor syujet va qahramonlar sarguzashtini o‘z ijodiy jarayonlarida qayta ishlaganlar, ularga tarixiy sharoitning talab va ehtiyojlari taqozo qilgan ayrim o‘zgartirishlarni kiritib, badiiy jihatdan sayqal berib, ularni yozma adabiyot namunalari

aylantirganlar. Shunday qilib, xalq og‘zaki ijodi bilan yozma adabiyotga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan badiiy asarlar maydonga kelgan va ular xalqqa manzur kitoblar bo‘lib qolgan [3.125]. XVIII -XIX asrlarda o‘zbek va turkman ,qoraqalpoq va qozoq xalqlari orasida og‘zaki ijodning ana shu xildagi asarlari ko‘plab yaratildi va yozma adabiyotning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. XVIII asrning oxirlarida ijodiy kamolotga erishgan hisorlik shoir Sobir Sayqaliy Bahrom bilan Gulandom haqidagi xalq afsonalari asosida “ Bahrom va Gulandom “ nomli asar yaratdi. Shuningdek,xalq ijodi materiallari zaminida shoir Rizoiy tomonidan “Xurshed va malikai Dilorom” , shoir Dilafkor tomonidan “Shahzoda Ra‘no va Suxangul”, XVIII asr turkman shoiri Shaydoiy tomonidan “Sanobar”, XIX asr boshlarida o‘tgan shoir Ma‘rifiy tomonidan “Yusufbek va Ahmadbek” dostonlari yaratildi. “Sanobar” dostonida Shahzoda Sanobar hamda Gulparizod va Mehrangiz o‘rtasidagi ishqiy sarguzashtlar tasvir etiladi. Dostonda xalq og‘zaki ijodidan samarali foydalanilgan bo‘lib, dunyoviy ruhdagi kitob bunyod etilgan. Kitobdagi qahramonlarning ayrimlari dev va parilar timsolida berilsa ham , ko‘p hollarda ular dunyo kishilari singari harakat qiladilar , qiyinchiliklarni yengishda , mardlik ko‘rsatishda , sevgi va vafodorlikda insonlarga xos eng yaxshi fazilatlarni namoyish etadilar [3.128]. Ma’lumki, fol’klor dostonlarining , jumladan, an’anaviy epik dostonlarning asosiy xususiyati ularning kollektiv ijod mahsuli ekanligi, og‘zakililigi,xalqqa tegishliligi, alohida-alohida asarlarning har xil variantlarda uchrashi, an’naviylik,anonimlik kabilardir.Xalq dostonlarida ham matn nasr va nazmning qo‘shiluvidan iborat. Baxshilar ulardagi prozaik qismni hikoya qiladi, she’riy qismni esa do‘mbira bilan kuylaydilar.Yozma adabiyot asarlarida esa, nazmda yoziladi va ular asosan masnaviy shaklida qofiyalanadi. Og‘zaki epik asarlarda barmoq vazni, yozma epik asarlarda esa aruz vazni asosiy she’riy o‘lchov hisoblanadi.Yozma poemalarning mualliflari ham aniq bo‘ladi [Adabiyot va hayot. SamDU ilmiy asarlari. 12-bet]

Vohid Abdullayevning ma’lumot berishicha, ” Yusuf va Ahmad” o‘zbek, turkman , qoraqalpoq va qozoq xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan dostonlardan ekanligi, u xalq shoirlari repertuaridan o‘rin olgan bo‘lib, uning turli variantlari va xalq kitobi turlari vujudga kelganligi, bu doston XIX asr oxirlaridan boshlab bir necha bor nashr etilganligini ta’kidlaydi. “Yusuf va Ahmad” kitobida bosh qahramonlar sifatida oddiy kishilar, ko‘pchilik xalq ommasining vakillari emas, balki yuqori nufuzli tabaqa vakillari, shoh va shahzodalar hayoti va sarguzashtlari tasvirlanadi. Bu ijtimoiy farovonlikka erishish yo‘lini hali anglab yetolmagan xalqning xon va shohlardan adolat-insof umidida bo‘lganliklaridan kelib chiqqan holdir.

“Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni ham ozarbayjon, o‘zbek , turkman, qoraqalpoq xalqlari va boshqa xalqlar adabiyotida mashhur. Asar dastlab qaysi yerda yaratilganidan qat‘iy nazar, unda xalqning XVI-XVII asrlardagi musibatli hayoti va zulmga qarshi noroziligi aks ettirilgan. Doston mavzusining tarixi va ozarbayjoncha “G‘arib va Shohsanam “ ni tadqiq etgan professor Hamid Araslining asosli dalillariga ko‘ra XVI asrda G‘arib taxallusli oshiq- shoir o‘tgan bo‘lgan , u kuylab yurgan g‘aribona termalar ma‘lum syujetli doston yaratish uchun ham asos bo‘lgan . “Oshiq G‘arib “ dostoni bir necha xalqning fol‘klarida bor. Akademik V.Abdullayev talqinicha, bu doston dastlab Ozarbayjonda yaratilgan, keyincha o‘zbek , turkman va qoraqalpoq xalqlarida paydo bo‘lgan . Chunki ozarbayjon tilidagi “oshiq” so‘zi o‘zbekchadagi “baxshi “, qozoqchadagi “oqin” , qoraqalpoqchadagi “jirov” so‘zlarining ma‘nosini ifodalaydi. Dostondagi bosh qahramon G‘arib ham shoir, ham bastakordir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results) . O‘zbekistonda esa “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining dastavval Xorazmda yaratilganligi shubhasizdir. Dostondagi ko‘p elementlar Xorazm dialektiga xos. Shuningdek, ozarbayjonchadagi Arzrum,Tabriz shaharlari o‘rnida Vayangan shahri (qadimgi Xorazm shaharlaridan biri) kabi mahalliy joy nomlarining zikr etilishi , voqealarning deyarli shu yerlarda davom ettirilishi ham asarning o‘zbek tilidagi varianti dastlab Xorazmda yaratilganini ko‘rsatadi [4.218]. Dostonning ayrim variantlarida aks ettirilayotgan voqealar Ovul,Qozoq viloyati,Iydgo‘h , Qalandarxona va boshqa joylarda sodir bo ladi, bu joylar keyingi asrlarda zohir bo‘lgan yoki dostonning xalq kitobi shaklida keltirilishi jarayonida shoirlar , kotiblar, ijrochilar tomonidan qo‘shilgan yangiliklar tarzida izohlanishi lozim.

Doston davlatmand oiladan bo‘lgan Shohsanam bilan kambag‘al oiladan chiqqan G‘arib o‘rtasidagi muhabbat temasiga bag‘ishlanadi. Dostondagi voqealar davomida G‘aribning shoirlik san‘atiga ,usta-sozandaligiga qoyil qolganini, xalq uning shoh Abbos qizi Sanamga samimiy oshiq bo‘lganiga ham hurmat bilan qaraydi va ularning o‘z ahdu paymonlariga erishuviga ko‘maklashadi.Xalq o‘z farzandlari G‘arib bilan Shohsanamni murod-maqsadiga yetishni o‘z taqdirini tarkibiy qismi deb biladi. Zotan , asarda faqat G‘arib bilan Sanamning orzu-havaslarinigina emas, balki xalqning erkinlik va farovonlik, madaniy taraqqiyot ,tenglik va hamjihatlik to‘g‘risidagi azaliy orzularini amalga oshirish kabi masalalar ham ilgari suriladi. G‘aribning “Jafokash bo‘lurlar Bag‘dod gullari” yoki “Barcha zolim bizga dushman , dildorim” kabi so‘zlarida xalqning zulmkorlarga qarshi ovozi yaqqol sezilib turadi.

“Oshiq G‘arib va Shohsanam “ asarining XVIII asrdayoq xalq kitobi shaklini ola boshlaganligini undagi Alisher Navoiy va XVII asr shoirlaridan Vafoiy bilan Sayido Nasafiy she‘rlariga hamohang bo‘lgan baytlardan ham ko‘rish mumkin. Chunonchi, Alisher Navoiy “ Xamsa” sida :

Oshiq ani bilki, erur dardnok

Ham tili, ham ko‘ziyu, ham ko‘ngli pok,-[5.137]

deyilgan bo‘lsa,”Oshiq G‘arib va Shohsanam “ dostonida xuddi ana shu misralarning mazmuni va she‘riy tarkibiga yaqin baytlar Shohsanam tilidan :

Oshiq bilan ma‘shuq yo‘li bir kerak,

Va‘dasi, vafosi, qalbi bir kerak,-

tarzida keltiriladi.

Sanamning “Bir odamdan o‘zga menga kim dastgir” ,-deb oshiq-ma‘shuqlik uchun birinchi galda insoniylik zarurligini uqtirgan olijanob so‘zlari ham Shirinning Farhodga bo‘lgan sadoqatini ifodalab:

Menga ne yoru ne oshiq havasdur,

Agar men odam o‘lsam ushbu basdur,-[6.172]-degan so‘zlarini esga tushiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Demak,”Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonining vujudga kelishi bilan uning xalq kitobiga aylanishi deyarli oldinma-ketin sodir bo‘lgan.Lekin dostonidagi termalarning xilma-xil vazndaligi, ularga Ozarbayjon va Xorazm xalq maqomlarining singdirilishi uni bir vaznda yoki bir xil she‘riy shaklda bunyod etilgan dostonlardan ajratib turadi. ”Oshiq G‘arib va Shohsanam” kitobi Sanamning G‘aribga bo‘lgan pok muhabbatini oyoq osti qilgan shoh Abbos zolinga ,shohvaladlarga,”raqiblar eli” ga, ”barcha zolimlar”ga qarshi qaratilgan bu doston feodal tuzumga , XVII asrdagi zolim hukmdorlarning zulmiga xalqning nafrat va g‘azabini, uning baxt-saodatga va erkinlikka chanqoqligini, kelajakka bo‘lgan ishonch va umidini tasvirlovchi ajoyib doston-xalq kitobidir.Vohid Abdullayev o‘zbek fol’klorining yirik bilimdoni sifatida Samarqand zaminida yashab ijod etgan xalq baxshilari Ergash Jumanbulbul,Islom shoir,Fozil Yo‘ldosh,Po‘lkan, ayniqsa, Ergash Jumanbulbul hayoti va ijodini chuqur tahlil qilib kitobxonga yetkazishda va ular nomini abadiylashtirishda munosib hissa qo‘shganlar. Olim o‘zbek xalq og‘zaki ijodining ham bilimdoni va haqiqiy jonkuyari edi.

Akademik Vohid Abdullayevning ham adabiyotshunoslik, ham fol’klorshunoslikning mushtarak hodisasi sanaluvchi xalq kitoblari tabiatiga doir bu ilmiy-nazariy qarashlari o‘zbek adabiyotshunosligi tarixidagi ilk izlanishlar samarasi bo‘lib xizmat qiladi. Olimning o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotini o‘rganish sohasida amalga oshirgan tashkiliy ishlari va mazmundor kuzatishlarga boy tadqiqotlari o‘zbek fol’klorshunosligiga o‘z vaqtida qo‘shilgan hissalar sifatida baholanishi tahsinga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)

1. B.M.Jirmunskiy.Eposning umumiy nazariy problemalari va o‘zbek dostonchiligini o‘rganish to‘g‘risida. “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari” jurnali.1959.4-son.76-bet
2. G.Vamberi .Ocherki. Sredney Azii. Moskva . 1968.str.336
3. V.Abdullayev “O‘zbek adabiyoti tarixi” 2-kitob.” O‘qituvchi”nashriyoti. 1967. 125-bet
4. V.Abdullayev.Tanlangan asarlar .Birinchi jild.”Fan” nashriyoti . -2002. 218-bet
5. V.Abdullayev.”Saylanma”.56-bet
6. Adabiyot va hayot. SamDU ilmiy asarlari. 12-bet
7. A.Navoiy. Xamsa.137-bet
8. A.Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni. 172-bet

USING ANSWER REPLICATION WHILE TEACHING SPEAKING IN FOREIGN LANGUAGE

Shoazizova Aziza Shomurod qizi, doctorant the UNPU

Abstract. This article describes the benefit of answer replication technique during teaching foreign language.

Key words: *foreign language, answer replication, replicating modal, attention, memory, thinking, adaptation.*

Introduction. The development of foreign language teaching methodologies has gone through multiple paradigms, ranging from grammar-translation to communicative approaches. Among these, the Answer Replication Method (ARM) occupies a significant yet controversial position. Rooted in repetition, imitation, and habit formation, the method involves learners replicating model answers provided by instructors or textbooks, either orally or in writing. While once central to structural and audio-lingual traditions, the method remains relevant today when adapted to modern communicative and task-based frameworks. This section investigates the theoretical foundations, pedagogical functions, strengths and weaknesses, and practical applications of the answer replication method in English language teaching.

The method originates in behaviorist psychology, especially B. F. Skinner's (1957) Verbal Behavior. In this framework, language learning is conceptualized as habit formation through stimulus–response–reinforcement cycles. Correct replication of a teacher's model constitutes the desired response, which is reinforced through praise, grades, or progression to the next exercise.

Structural and Oral Methods Harold E. Palmer (1921) and Charles Fries (1945) emphasized the role of pattern practice in language learning. By replicating fixed responses, learners gradually internalize grammatical structures. For example:

- Teacher: “What are you doing?”
- Student: “I am reading a book.”

This drilling ensured accuracy and fluency in controlled conditions, though often at the cost of creativity.

Sociocultural and Constructivist Perspectives Lev Vygotsky's (1978) zone of proximal development (ZPD) reframes replication as a scaffolding device. Learners initially depend on replication but, through guided interaction, develop the ability to construct their own answers. Thus, replication serves as a transitional strategy, moving from imitation to autonomy.

Characteristics of the Answer Replication Method

The method can be identified through the following features:

1. Model-based learning: Teacher or textbook provides a complete model.
2. Exact replication: Learners reproduce the model with minimal modification.
3. Gradual adaptation: Learners later substitute elements, moving toward personalization.
4. Repetition and reinforcement: Frequent replication strengthens linguistic patterns.

Pedagogical Function

Positive Functions

- Memory retention: Enhances recall of vocabulary and grammatical structures.
- Confidence building: Lowers anxiety for beginners by reducing cognitive load.
- Pronunciation accuracy: Replication helps learners imitate stress, rhythm, and intonation.
- Error elimination: Correct models replace faulty learner forms.

Educational theorists have long debated the role of imitation and repetition in language acquisition and skill development. According to Harold Palmer (1921), repetition forms the foundation of oral methods in foreign language teaching, where learners replicate model responses to internalize phonetic and syntactic structures. Similarly, behaviorist perspectives, notably those of B. F. Skinner (1957), emphasize that repetition reinforced by positive feedback leads to the establishment of desirable habits.

Vocabulary Acquisition

Replication is effective for collocation learning. For example:

- Teacher: “I have breakfast at 7 o’clock.”
- Student: “I have lunch at 12 o’clock.”

Here replication transitions into substitution drills, strengthening vocabulary in context.

Grammar Practice

Replicating sentence patterns develops automaticity:

- Model: “She is writing a letter.”
- Replication: “He is writing a letter.”

Speaking and Listening

Through dialogue replication, learners internalize conversational routines:

- A: “Where do you live?”
- B: “I live in London.”

Later, students adapt answers to their own reality: “I live in Tashkent.”

REFERENCES

1. Palmer, H. E. (1921). *The Principles of Language Study*. London: Harrap.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching* (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Skinner, B. F. (1957). *Verbal Behavior*. New York: Appleton-Century-Crofts.
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

**TARJIMADA TABU: LINGVOMADANIY TO‘SIQLAR
TABOO IN TRANSLATION: CULTURAL AND LINGUISTIC CHALLENGES**

Madina To‘xtamurodova

PhD izlanuvchisi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotation:

This article deals with the current linguistic and cultural problem in Translation: taboo. Its cultural, sociological, and linguistic aspects are highlighted as challenges for translators. The thesis identifies common translation strategies such as euphemism, omission, substitution, and cultural adaptation as solutions to the problem.

Key words: taboo, cultural aspects, linguistic taboos, euphemism, omission, substitution.

Annotatsiya:

Ushbu maqola tarjimadagi dolzarb til va madaniy muammolardan biri, tabuga bag'ishlangan. Uning madaniy, ijtimoiy va lingvistik jihatlari tarjimonlar uchun qiyinchilik sifatida ta'kidlangan. Tezisdan muammoning yechimi sifatida yevfemizm, qoldirib ketish, almashtirish va madaniy moslashuv kabi umumiy tarjima strategiyalari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: tabu, madaniy aspektlar, lingvistik tabular, yevfemizm, tushirib qoldirish, almashtirish.

Tabular bir jamiyatdan boshqa jamiyatga e'tiqod, axloq va madaniy farqlarga tayanib farq qiladi. Biroq, shunday savol uyg'onadi, tabu tushunchasi aslida qayerdan kelib chiqqan, uning tarixi qanday? "Tabu" so'zi tongancha (tapu) yoki fijicha tabu (taqiqlangan, ruxsat berilmagan, man etilgan) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, boshqalar qatori Maori tapu bilan bog'liq.

Jorj Shtayner o'zining "Tabu" kitobida tabuning tarixiy, madaniy va sotsiologik ildizlarini o'rganadi va uning ahamiyatini ta'kidlash uchun ta'riflar va misollar keltiradi. "Tabu" atamasi polineziyacha "tapu" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, birinchi marta 18-asr oxirida kapitan Jeyms Kukning Tinch okeanining janubiy qismiga sayohati paytida yevropaliklar duch kelgan qabilalar tilidan olingan. Kuk polineziyaliklarning muqaddas, taqiqlangan yoki xavfli narsalar yoki harakatlarga nisbatan tabudan foydalanishini kuzatdi va ularni daxlsiz deb belgilaydi. Kukning polineziyaliklar bilan bo'lgan uchrashuvi G'arb tafakkuriga tabu tushunchasini kiritdi va u keyinchalik antropologik va sotsiologik tadqiqotlar uchun markazga aylandi.

Tabular ko‘pincha muqaddas va nopok degan ma‘nolar bilan ifodalanib, ba‘zi narsalar, odamlar, xavfli yoki nopok deb hisoblangan amaliyotlar bilan aloqa qilishni taqiqlaydi. Kukning 1777-yilgi jurnal yozuvida Tongan xalqi quyidagicha tasvirlangan: “Ulardan hech biri o‘tirmasdi yoki hech narsa yemaydi... Hayratga sabab bo‘ladigan bunday holat, o‘zlari aytganidek, hammasi tabu edi. Bu tabu so‘zi juda keng qamrovli ma'noga ega, lekin umuman olganda, u biror narsaning taqiqlanganligini bildiradi». Uning ingliz tilida qo‘llanilishi 1777 yilda ingliz tadqiqotchisi Jeyms Kuk Tongaga tashrif buyurgan davrdan boshlangan.¹

Tarixiy jihatdan, tabular itoatkorlik va marosimlarga rioya qilish mexanizmlari bo‘lib xizmat qilgan, ko‘pincha diniy urf-odatlar yoki ijtimoiy tuzilmalar bilan bog‘langan. Shtaynerning ta‘kidlashicha, bu taqiqlar xavfli yoki muqaddas deb hisoblangan narsalar atrofida chegaralar yaratish orqali shaxslar va jamoalarni himoya qilish vazifasini bajaradi. Tabularni buzish ko‘pincha ijtimoiy yoki ma‘naviy oqibatlariga olib keladi, jumladan jazolash, ajratib qo‘yish va marosimlarga qo‘shmaslik kabi.

Sotsiolingvistlarning ta‘kidlashicha, taqiqlangan so‘zlar ko‘pincha jamiyatdagi kuch dinamikasini aks ettiradi. Til tanlash, masalan, tabu so‘zlardan foydalanish yoki undan qochish, isyon, ijtimoiy birdamlik yoki hokimiyatga bo‘ysunishni anglatishi mumkin. Masalan, so‘kinishlar ko‘pincha hokimiyatga qarshi chiqish yoki umidsizlikni bildirish uchun ishlatiladi, ammo rasmiy holatlarda qattiq senzura uchurashi mumkin.

A.Siddiqiyning ta‘kidlashicha, G‘arbliklarning “tabu” tushunchasi Arablarning “harom” tushunchasi bilan o‘zaro o‘xshashdir. Tabu tili aylanma yo‘llar va ishoralar bilan ifodalanadigan so‘z va harakatlardan iborat.² Y.Gu ta‘kidlashicha, "Tabu" hodisasi "muqaddas" yoki "daxlsiz" degan ma'noni anglatadi.³

Shtayner tabuni turli toifalarga ajratadi:⁴

Diniy tabular: muqaddas narsalarga tegmaslik yoki muqaddas joylarga tozalanmasdan kirmaslik kabi taqiqlar.

Ijtimoiy tabular: o‘lim, kasallik, tana funksiyalari, hayz ko‘rish va tug‘ilish bilan bog‘liq mavzular.

Oziq-ovqat tabulari: Islomda cho‘chqa go‘shiti yoki hinduizmda mol go‘shiti kabi o‘ziga xos oziq-ovqatlarni iste‘mol qilishga cheklovlar.

Lingvistik tabular: Ba‘zi so‘zlar yoki mavzulardan qochish, ayniqsa rasmiy kontekstda.

¹ Cook, J., 1812. *The voyages of Captain James Cook: round the world*. London: Longman, Hurst, Rees, Orme, and Brown.

² Siddiqiy, A., 2003. *The concept of taboo in Western and Islamic cultures*. Cairo: Al-Azhar University Press.

³ Gu, Y., 2002. *The phenomenon of taboo: sacred or untouchable?* Beijing: Language and Culture Press.

⁴ Steiner, G., 1967. *Taboo*. UK: Penguin Books.

Turli tillarda uchrashi mumkin bo'lgan tabular sirasida quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

So'kinish va haqorat so'zlari:

So'kinish so'zlari ko'pincha g'azab, umidsizlik yoki ta'kidni yetkazish uchun din, jinsiylik yoki tana funksiyalari kabi tabu mavzulariga tayanadi.

Ingliz tilidan misollar:

Diniy haqorat so'zlari: "God damn it!" ("Xudoning la'nati bo'lsin") yoki "Jesus Christ!" ("Iso Masih!") xristian madaniyatlarida kufr deb hisoblanadi.

O'zbek tilidagi misollar:

O'zbek tilida diniy so'kinishlar asosan qarg'ishlarga to'g'ri keladi. Ularga misol sifatida "Jin ursin!", "Xudo ursin!" kabilarni keltirish mumkin.

O'lim tabulari:

O'lim ko'plab madaniyat va jamiyatlarda nozik mavzu hisoblanib, unga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishda odatda yumshatiladi yoki bu mavzudan umuman qochiladi.

Ingliz tilidan misollar:

To'g'ridan-to'g'ri "dead" ("o'ldi") so'zi o'rniga "passed away" ("vafot etdi"), "departed" ("ketdi") or "gone to a better place" ("yaxshiroq joyga ketdi") kabi iboralari ishlatiladi.

"Grave" ("qabr") va "corpse" ("murda") kabi so'zlar "final resting place" ("oxirgi dam olish joyi") yoki "the departed" ("o'lganlar") bilan almashtirilishi mumkin.

O'zbek tilida "o'lmoq" so'zi o'rniga odatda "vafot etdi", "bandalikni bajo keltirdi", "rahmatli bo'ldi" kabi yevfemistik iboralar ishlatilishi mumkin.

Tarjima jarayonida tabular qo'llanilgan holatlarda avvalo uning tarjima qilina olish imkoniyatiga baho beriladi. Eng birinchi holatda, tarjimonlik etiketidan kelib chiqqan holda tabularning tarjima tili madaniyatiga mos ravishda ekvivalenti qidiriladi. Odatda tarjima tili madaniyati konservativ jamiyat bo'lgan holatlarda tarjima jarayoni maxsus strategiyalar yordamida amalga oshiriladi. Ularga misol sifatida, yevfemizm so'zlardan qo'llanilish, tushirib qoldirish, o'rin almashtirish, umumlashtirish kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdelaal, N.M. and Al Sarhani, A., 2021. Subtitling strategies of swear words and taboo expressions in the movie *Training Day*. *Heliyon*.
2. Allan, K., 2001. *Natural language semantics*. Malden (MA): Wiley-Blackwell.
3. Allan, K. and Burridge, K., 1991. *Euphemism and dysphemism: language used as shield and weapon*. Oxford: Oxford University Press.

4. Cook, J., 1812. *The voyages of Captain James Cook: round the world*. London: Longman, Hurst, Rees, Orme, and Brown.
5. Gu, Y., 2002. *The phenomenon of taboo: sacred or untouchable?* Beijing: Language and Culture Press.
6. Lörcher, W., 1991. *Translation performance, translation process, and translation strategies: a psycholinguistic investigation*. Tübingen: Gunter Narr.
7. Siddiqiy, A., 2003. *The concept of taboo in Western and Islamic cultures*. Cairo: Al-Azhar University Press.
8. Steiner, G., 1967. *Taboo*. UK: Penguin Books.

“YO‘QOTILGAN AVLOD” MUAMMOSI ERICH MARIA REMARKNING “G‘ARBIY FRONTDA O‘ZGARISH YO‘Q” ASARI MISOLIDA

G‘iyosov Mirali,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar Erich Maria Remark, G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q, yo‘qotilgan avlod, urush, insoniyat fojiasi, yoshlar, front, ruhiy iztirob, adabiy tahlil, zamonaviy roman.

Erich Maria Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani XX asr adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Asarda Birinchi jahon urushida qatnashgan nemis yoshlarining taqdiri o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Muallif urushning shafqatsiz manzaralarini tasvirlab, uning inson ruhiyatiga qanday dahshatli ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Urushga safarbar etilgan yoshlar orzu va umidlarini yo‘qotgan holda tasvirlanadi. Ularning hayoti nafaqat jismonan, balki ma‘nan ham vayronaga aylanadi. Shu sababli romanda “yo‘qotilgan avlod” atamasi asosiy ramz sifatida gavdalanadi. Bu avlod o‘zining eng go‘zal yillarini frontda yo‘qotgan edi. Ular na maktab hayotiga qaytib keta oldi, na oddiy tinchlik hayotiga moslashdi. Shunday qilib, roman butun bir avlodning fojeasini ko‘rsatib beradi.

Asarda bosh qahramon Pol Boymer obrazi orqali yo‘qotilgan avlodning fojiasi ochib beriladi. Pol ham boshqa tengdoshlari singari urushga majburan jalb qilinadi. U dastlab vatanparvarlik hissi bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, tez orada urushning mohiyatini anglab yetadi. Frontdagi qonga belangan hayot unga orzu qilingan qahramonlik emas, balki o‘lim va qo‘rquvni taqdim etadi. Polning ko‘plab do‘stlari birin-ketin halok bo‘ladi. Bu holat uning ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. U frontdan qaytgan taqdirda ham sobiq hayotga qaytishi mumkin emasligini his etadi. Shuning uchun Pol obrazi butun “yo‘qotilgan avlod”ning timsoliga aylanadi. Muallif uning taqdirini butun avlodning fojeasi sifatida tasvirlaydi.

Romanda “yo‘qotilgan avlod” tushunchasi faqat jismoniy yo‘qotishlarni emas, balki ma‘naviy iztiroblarni ham qamrab oladi. Yoshlar maktabdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri frontga yuboriladi. Ular hayotning go‘zal tomonlarini ko‘rishga ulgurmay, urushning shafqatsizligi bilan yuzma-yuz bo‘lishadi. Orzulari, kelajakka bo‘lgan ishonchi va insoniy qadriyatlarini yo‘qotiladi. Bu yoshlar uchun front nafaqat jang maydoni, balki ruhiy sinov maskani hamdir. Urush ularni ertaroq keksaytirib qo‘yadi. Shunday qilib, romanda butun avlodning hayotiy yo‘li o‘zgacha talqin qilinadi. “Yo‘qotilgan avlod” tushunchasi shu nuqtada chuqur mazmun kasb etadi.

Remark urushning maktab yoshlariga qanday ta'sir ko'rsatganini chuqur tasvirlaydi. Asarda o'qituvchilar va siyosiy targ'ibotchilarning yoshlarga bo'lgan bosimi ham ifodalanadi. Yoshlarni urushga chorlovchi gaplar ular uchun baxtli kelajak va'dasi sifatida eshitaladi. Ammo frontga kelgach, bu va'dalarning barchasi yolg'on ekanligi ayon bo'ladi. Yoshlarning ishonchi buziladi va ular jamiyatga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Bu yo'qotish ruhiy inqirozning asosiy omiliga aylanadi. Asar shu orqali siyosatning yoshlar taqdirini qanday halokatga olib kelishini ko'rsatadi. "Yo'qotilgan avlod" faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy fojea sifatida ham talqin qilinadi.

Romanda tasvirlangan voqealar urushning jismoniy halokatidan ko'ra ko'proq ma'naviy vayronalikni ko'rsatadi. Har bir qahramonning halokati yoki yaralanishi butun bir avlodning yo'qotishlariga tenglashtiriladi. Ularning ruhiyatida chuqur iz qoldirgan urush ularni jamiyatdan ajratadi. Oddiy tinchlik hayotiga qaytish ularning hech biri uchun oson emas. Shu sababli, "yo'qotilgan avlod" deganda urushdan omon qaytganlar ham nazarda tutiladi. Chunki ular ham hayotga qayta moslasha olmaydi. Ruhiy jarohatlar jismoniy jarohatlardan ham og'irroqdir. Bu iztiroblar avlodning butun hayotini izdan chiqaradi. Shu orqali romanning umumiy fojiali mazmuni yanada teranlashadi.

Asarda qahramonlarning o'limi "yo'qotilgan avlod" tushunchasini yanada kuchaytiradi. Polning yaqin do'stlari – Kach, Müller, Kropp kabi obrazlarning halokati yoshlarning taqdirini fojiaga aylantiradi. Ularning o'limi nafaqat urushning qurbonlari sifatida, balki yo'qolgan orzular timsoli sifatida ko'rsatiladi. Muallif ularning shaxsiy taqdirini umumiy avlod taqdiriga bog'laydi. Bu bilan butun bir jamiyatning yo'qotgan imkoniyatlari ifodalanadi. Urushning shafqatsizligi har bir individual hayot orqali umumlashtiriladi. "Yo'qotilgan avlod" romanning markaziy metaforik tushunchasiga aylanadi. O'lim va iztirob roman bo'ylab doimiy hamroh bo'lib turadi. Romanda "yo'qotilgan avlod" muammosi faqat nemis jamiyatiga xos emas, balki butun insoniyatga tegishli masala sifatida tasvirlanadi. Birinchi jahon urushi dunyoning ko'plab mamlakatlariga birdek azob keltirgan. Yoshlar hamma joyda o'z orzu va umidlarini yo'qotgan. Shu jihatdan Remarkning romani universal ma'no kasb etadi. Asar insoniyat tarixida urushning fojiali oqibatlarini ko'rsatadigan yirik adabiy manbalardan biridir. Har bir qahramon taqdiri milliy chegaralardan chiqib, umumjahon ma'nosini oladi. Bu asar butun dunyoda "yo'qotilgan avlod" fenomenini tushunishga xizmat qiladi. Shu bois romanning qimmatini faqat adabiy emas, balki falsafiy hamdir. Romanda urushdan keyingi hayotga qaytish masalasi ham "yo'qotilgan avlod" tushunchasi doirasida tahlil qilinadi. Qahramonlar frontdan qaytgach, o'zlarini jamiyatdan begona his qiladilar. Ular urushni tushunmagan kishilar bilan til topisha olmaydilar. Bu aloqa uzilishi ularning ruhiy izolyatsiyasini yanada kuchaytiradi.

Natijada yosh avlod jamiyatdan ajralib, o'ziga xos "yo'qolgan" holatga tushib qoladi. Bu holat ularning hayotiy maqsadlarini qayta tiklashga imkon bermaydi. Jamiyat bilan avlod o'rtasidagi bunday ajralish katta ijtimoiy fojeaga aylanadi. Shu tariqa roman faqat urush maydonidagi emas, balki urushdan keyingi iztiroblarni ham ochib beradi. Asarda tasvirlangan urush va yo'qotishlar muallifning insonparvarlik qarashlarini ham aks ettiradi. Remark urushni tanqid qilish orqali inson hayotining qadrini targ'ib qiladi. U front ortidagi siyosiy o'yinlarni fosh qilib, oddiy askarning fojeasini ko'rsatadi. "Yo'qotilgan avlod" g'oyasi orqali insoniyat uchun saboq berishga intiladi. U shafqatsizlik va adolatsizlikka qarshi ovoz ko'taradi. Bu jihat romaning nafaqat adabiy, balki axloqiy ahamiyatini ham belgilaydi. Asar o'quvchini chuqur o'yga toldiradi va urushning befoydaligi haqida mulohaza yuritishga undaydi. Shu tarzda muallifning badiiy maqsadi yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Erich Maria Remarkning "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romani "yo'qotilgan avlod" fenomenini chuqur badiiy tahlil qiladi. Asarda yoshlarning orzulari, ishonchi va kelajagi urush qurboni sifatida ko'rsatiladi. Pol Boymer obrazi orqali bu avlodning umumiy fojeasi ifodalanadi. Romanda urushning jismoniy va ma'naviy oqibatlarini birdek tasvirlangan. Yo'qotilgan avlod faqat o'lim bilan emas, balki ruhiy iztiroblar bilan ham belgilanadi. Asar o'zining falsafiy va insonparvarlik mohiyati bilan alohida o'rin tutadi. U butun insoniyat uchun ogohlik qo'ng'irog'i bo'lib yangraydi. Shu sababli, "yo'qotilgan avlod" masalasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Roman adabiyot tarixida urushga qarshi kuchli asarlardan biri sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Remark E. M. *G'arbiy frontda o'zgarish yo'q*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1989.
2. Holbrook, Morris. *The Lost Generation: Literature and the First World War*. New York: Routledge, 2015.
3. Eksteins, Modris. *Rites of Spring: The Great War and the Birth of the Modern Age*. Boston: Houghton Mifflin, 1989.
4. Fussell, Paul. *The Great War and Modern Memory*. Oxford: Oxford University Press, 1975.

KO'NGIL TIMSOLI: TASAVVUFIY-FALSAFIY ASOSLAR VA ADABIY AN'ANA (Bobur lirikasi misolida)

Qahharova Dilafro'z Abdug'afforovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Jahon adabiyoti kafedrasida katta
o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Tasavvuf ilmida ko'ngil insonning ichki dunyosini, ruhini ifodalaydi va uning ilohiy haqiqatlarga yo'l topishi uchun zarur bo'lgan markaz ekanligi ta'kidlanadi. Maqolamizda tasavvuf ilmining keng yoyilishiga hissa qo'shgan so'fiylar Mansur Halloj, shayx Adabali, Ibn Haldun, shayx Safiy Alimshohlarning ko'ngil haqidagi fikrlari insonning ichki dunyosini tozalash, yuksaltirish va Allohga yaqinlashish haqidagi qarashlari tahlilga tortilgan. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning lirikasida uchragan tasavvufiy qarashlar xususida so'z yuritilgan. Boburning tasavvufiy qarashlari uning hayoti va ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. U o'z asarlarida tasavvufiy g'oyalarni va tasavvufning asosiy tushunchalarini o'ziga xos tarzda ifodalagan.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, so'fiylik, ko'ngil, shayx, pir, Mansur Halloj, Adabali, Ibn Haldun, Safiy Alimshoh, Bobur.

АННОТАЦИЯ

В науке тасаввуф утверждается, что сердце выражает внутренний мир человека, его душу и является центром, необходимым для того, чтобы найти путь к божественным истинам. В нашей статье анализируются взгляды суфиев Мансура Халладжа, шейха Адабали, Ибн Халдуна, шейха Сафи Алимшаха на очищение, возвышение внутреннего мира человека и приближение к Аллаху. Также обсуждаются суфийские взгляды, встречающиеся в лирике Захириддина Мухаммада Бабур. Суфийские взгляды Бабур оказали большое влияние на его жизнь и творчество. В своих произведениях он своеобразно выразил суфийские идеи и основные понятия суфизма.

Ключевые слова: Суфизм, суфизм, сердце, шейх, пир, Мансур Халладж, Адабали, Ибн Халдун, Сафи Алимшах, Бабур.

ABSTRACT

In the science of Sufism, it is emphasized that the heart expresses the inner world, the soul of a person and is the center necessary for him to find the way to divine truths. In our article, the thoughts of Sufis Mansur Hallaj, Sheikh Adabali, Ibn Khaldun, Sheikh Safi Alimshah, who contributed to the widespread dissemination of the science of

Sufism, about the soul, about the purification, elevation of the inner world of a person and the approach to Allah, are analyzed. It also discusses the Sufi views found in the lyrics of Zahiriddin Muhammad Babur. Babur's Sufi views had a great influence on his life and work. In his works, he expressed Sufi ideas and the basic concepts of Sufism in a unique way.

Keywords: Sufism, Sufism, heart, sheikh, pir, Mansur Hallaj, Adabali, Ibn Khaldun, Safi Alimshah, Babur.

Kirish. Tasavvuf ilmida ko'ngil insonning ichki dunyosini, ruhini ifodalaydi va uning ilohiy haqiqatlarga yo'l topishi uchun zarur bo'lgan markaz ekanligi ta'kidlanadi. Tasavvufda ko'ngil insonning ilohiy haqiqatni anglash, Allohni topish va uni yurakda his qilish joyi sifatida qaraladi. Ko'ngil Allohning nurini qabul qiluvchi joy, qalb esa ma'naviy tozalash va ilohiy sevgiga erishish uchun zarur bo'lgan poydevor sifatida ishlatiladi. Ko'ngilning tozaligi ruhiy o'sishning boshlanishidir. Tasavvufda ko'ngilni tozalash, uning zulmatidan chiqarish va ilohiy nurga yo'l ochish asosiy maqsadlardan biridir.

Insonning ko'ngli qanchalik toza bo'lsa, u Allohga yaqinlashadi va haqiqiy ma'naviy bilimni anglashga muvaffaq bo'ladi. Ishq, tasavvufda ko'ngilning Allohga bo'lgan muhabbati sifatida tushuniladi. Ko'ngil, tasavvufda tafakkur va ilohiy bilimlarga erishish vositasi sifatida ham tushuniladi. Yaxshi fikrlar va to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'ngilning tozaligiga va uning ma'naviy yuksalishiga bog'liq. Tasavvufda inson o'z ichki dunyosiga, ko'ngliga bo'ysunib, haqiqiy ilm va hikmatga erishadi.

Ko'ngil timsoli tasavvuf ta'limotida chuqur ma'no va mazmunga ega. U insonning ichki dunyosini, ruhini, ma'naviyatini va uning Alloh bilan bo'lgan aloqasini ifodalovchi asosiy timsollardan biridir. Tasavvufda ko'ngil insonning qalbi sifatida tushuniladi. U nafaqat insonga tegishli a'zo, balki ruhiy va ma'naviy markazdir. Ko'ngil insonning haqiqiy mavjudligi va uning ma'naviy holati bilan bog'liqdir. Tasavvufda ko'ngilni poklash va yuksaltirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib, bu jarayon Allohga yaqinlashish va haqiqatni anglashga olib boradi. Shuningdek, tasavvufda ko'ngil, asosan, Allohning nurini qabul qilish joyi sifatida qaraladi. Allohning ilmi, nur va rahmati ko'ngilda aks etadi. Ko'ngilning pokligi va sof holati tasavvufdagi ma'naviy yuksalishning belgisidir. Tasavvufda ko'ngil, asosan, sevgi va ishq timsoli sifatida tasvirlanadi. Ishq, ayniqsa, Allohga bo'lgan muhabbat, insonning qalbida mavjud bo'lgan eng yuksak tuyg'udur. Ko'ngil, ishqning manbai va aks-sadosi sifatida, tasavvufiy tafakkurda chuqur ahamiyatga ega.

Lirik turda bevosita tasavvuf ilmida arab, fors va turkiy tillarda she'rlar yozilgan. Ana shu she'riyat Sharq xalqlari orasida tasavvuf ilmining keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

Tasavvuf ilmi dastlab so‘fiyona qarashlardan iborat edi. Keyinchalik u shoirlarning she‘rlari uchun eng katta mavzuga aylandi. “Tasavvuf ta‘limotida ko‘ngil ulug‘lanadi. Boisi, u Alloh jilvagohi. Shu ma‘noda ijodkorlar ko‘ngil timsoliga murojaat qilish orqali insonning ulug‘ligiga, uni Allohning yeradagi xalifasi ekanligiga ishora qiladir”¹.

Asosiy qism. Tasavvuf ilmining keng yoyilishiga hissa qo‘shgan so‘fiylardan biri Mansur Hallojdir. Taqdiri ayanchli bo‘lgan so‘fiy hamisha o‘zini Allohga bog‘lab turadigan joy uning ko‘ngli ekanligini ta‘kidlagan. “Halloy “Ba joyi adoyi haj, nazaru ziyorati Ka‘bai dil kofi ast” ma‘nosi “Haj ziyorati o‘rnida dil Ka‘basini ziyorat qilish kifoyadir”, degani uchun Bag‘dodda g‘avg‘o qo‘zg‘algan”². Uning hayoti va faoliyati ko‘plab e‘tirozlar, qarama-qarshiliklar va falsafiy tafsiyalar bilan to‘la. Halloy “Anal-Haq” (men Haqman) degan iborani aytib, Alloh bilan birlashganini da‘vo qilgan. Aynan shu davosi noto‘g‘ri talqin qilinib hayotining fojeaviy yakun topishiga sabab bo‘lgan. Hallojning tasavvufiy qarashlari juda ko‘p islomning rasmiy e‘tiqodlari bilan qarama-qarshi kelgan va uning da‘volari rad etilgan. U insonning haqiqiy mohiyatini, Allohga bo‘lgan yaqinlikni va ruhiy erkinlikni o‘rganishga qaratilgan. Mansur Hallojning merosi zamonaviy tasavvufda muhim o‘rin tutadi. Uning yo‘li va fikrlari ko‘plab so‘fiy shayxlari tomonidan o‘rganilgan va tasavvufdagi haqiqatni izlash yo‘lining o‘ziga xos ifodasi sifatida e‘tirof etilgan.

Usmoniylar saltanatini buyuk davlat bo‘lishiga hissa qo‘shgan, buyuk Usmon g‘oziyning ustoz shayx Adabali ham tasavvuf ilmida ko‘ngilning mavqe‘yi haqida fikrlar bildirgan. U insonning ko‘ngli, ruhiy holati va maqsadlarini tushunishda chuqur mulohazalar yuritgan. Adabali ko‘ngilni insonning ichki olami va amallari bilan bog‘laydi. U ko‘ngilni poklik va o‘zini anglashning asosi sifatida qaraydi, shu bilan birga, ko‘ngilning o‘zgarishi, tozaligi yoki ifloslanishi, insonning ruhiy ahvolini belgilashda katta ahamiyatga ega deb biladi. Ko‘ngilning pokligini saqlash va uning ichki go‘zalligini namoyon qilishga alohida e‘tibor beriladi. Shayx Adabali fikriga ko‘ra, “insonning haqiqiy baxti uning ichki holatiga, ko‘nglida poklikka va odob-axloqning yuqori darajalariga bog‘liqdir. Shu sababli, ko‘ngilni tozalash va ularni yomon, zararli fikrlar va hulqlardan himoya qilish”³ kerakligi ta‘kidlanadi. Shayx Adabali, shuningdek, ko‘ngilni o‘zgarish va o‘zini anglash jarayonida samimiy ma‘rifat orqali tozalashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Uning fikrlariga ko‘ra, ko‘ngilni o‘zgartirish, shaxsiy taraqqiyot va ilohiy nurga yaqinlashish insonning ruhiy baxtiga olib keladi.

¹ Husanova K. Tasavvufiy timsollarning she‘riyatdagi o‘rni. <https://zenodo.org/> 138-b.

² Haqqul I. Asrori Halloy. <https://kh-davron.uz/kutubxona>

³ Усмон Нурий Тўпбош. Бир кўза сув. – М., 2010, 41-б.

Tasavvuf ta'limotida ijod qilgan so'fiylardan yana biri Alouddavla Simmoniy ko'ngil haqida o'zining asarlarida chuqur tafakkur va tasavvufiy qarashlarini ifodalagan. Uning ko'ngil haqidagi fikrlari insonning ichki dunyosi, qalb va ruhiyatini anglashga qaratilgan edi. Simmoniy ko'ngilni, avvalo, poklik, orzu, tuyg'u manbayi sifatida ko'rgan. Unga ko'ra, ko'ngil – insonning asliyatini va haqiqiy tabiatini aks ettiruvchi muhim bir ichki dunyo. “Alouddavla Simmoniy vahdatul vujud o'rniga vahdatush shuhud (yagona guvohlik yoki mushohada birligi) nazariyasini taqdim etgan. Bu nazariyaga ko'ra, Mutlaq zot sifatleri jami ashyolarga emas, balki inson qalbida jilolanadi. Insonning maqsadi esa musaffolanib, Mutlaq vujud nurini qabul qilishga tayyorlanib borishdir”⁴. Simmoniy ko'ngilni tashqi dunyo bilan bog'lashda ham, uning butun mavjudligini shaxsning ichki holatini anglashga qaratgan. U qalbni yaxshilash, tozalash va undagi salbiy his-tuyg'ulardan qutulish zarurligini ta'kidlaydi. Simmoniy fikriga ko'ra, ko'ngilni poklash orqali inson Alloh bilan yaqinlashishi, haqiqiy baxtni topishi mumkin. Shuningdek, u ko'ngilni yashirin hikmatlarni anglash va ulkan maqsadlar sari intilishning asosi deb bilgan. Ko'ngilni poklash va qalbni tarbiyalash masalalari, uning tasavvufiy g'oyalarida muhim o'rin tutgan.

Temuriylar davrida tasavvufiy ta'limotida ijod qilgan Ibn Haldundur. Ibn Haldunning fikricha, insonning tabiati va uning ruhiy holatlari jamiyat va uning atrof-muhitiga, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga bog'liqdir. Agar inson tinch va barqaror jamiyatda yashasa, uning ruhiy holati tinch bo'ladi, ammo jamiyatda nizolar va beqarorlik mavjud bo'lsa, insonning ko'ngili ham beqaror bo'ladi. Ibn Haldun “nafs” va “ko'ngil” o'rtasidagi aloqani ham ta'kidlaydi. “Nafsning qusurlari, masalan, ortiqcha ishtaha yoki shahvat, insonning ko'ngilini ifloslantiradi va uning maqsadlariga to'sqinlik qiladi. Aksincha, maqsadga erishish uchun ko'ngilni to'g'ri yo'naltirish va nafsni tiyish zarur”⁵, deb hisoblaydi. Shunday qilib, Ibn Haldunning ko'ngil haqidagi qarashlari, insonning ruhiy holatlarini faqat uning ichki dunyosi bilan emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy sharoitlar bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Shayxlardan yana biri shayx Safiy Alimshohdir. Shayx Safiy Alimshoh, o'zining ma'rifiy va tasavvufiy qarashlari bilan mashhur bo'lgan mutafakkir va shayxdir. Uning ko'ngil haqidagi fikrlari tasavvufning chuqur g'oyalariga asoslanadi. Alimshohning ko'ngil haqidagi ta'limoti, insonning ichki olami va ruhiy poklikka bo'lgan muhabbatini ta'kidlaydi. U ko'ngilni yashirin va nozik jihatlar orqali tasvirlaydi va uning muhimligini bir necha asosiy nuqtada bayon etadi. U ko'ngilni Allohning nurini qabul qiladigan joy sifatida ko'radi. Pok ko'ngil orqali inson ilohiy haqiqatni tushunadi

⁴ Komilov N. Vahdatul vujud va vahdatush shuhud. <https://kh-davron.uz/kutubxona/>

⁵ Djuraboyeva D. Ibn Haldunning “Muqaddima” asarida Amir Temur siyomosining yoritilishi. <https://wordlyknowledge.uz>. 143-b.

va o'zining haqiqiy mohiyatini anglaydi. Alimshoh, "ko'ngilning mustahkam bo'lishi uchun sabr va tahammulning zarurligini"⁶ ta'kidlaydi. Isoning ichki tinchligi va ma'naviy o'sishi sabr va o'zini tahlil qilish orqali amalga oshadi. Shayx, ko'ngilni mustahkamlash uchun insonni uning ichki holatini tushunishga va xatolarini tuzatishga chaqiradi. Shayx Safiy Alimshohning ko'ngil haqidagi fikrlari, insonning ichki dunyosini tozalash, yuksaltirish va Allohga yaqinlashish uchun muhim bir manba sifatida tasavvufdagi amaliyotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ko'ngilni poklash va ruhiy yuksalishga erishish uning ma'rifatli ta'limotlarida markaziy o'rin tutadi.

Shayx Ravim, tasavvufiy ta'limotlari va ma'rifatli fikrlari bilan tanilgan shayxlaridan biridir. Uning ko'ngil haqidagi fikrlari tasavvufning ruhiy va ma'rifiy o'ylari bilan chuqur bog'liq. Shayx Ravim, ko'ngilni insonning ichki dunyosining markazi, haqiqatni anglash va ilohiy nurni qabul qilish joyi sifatida tasvirlaydi. Uning ko'ngil haqidagi fikrlariga quyidagilar kiradi. Ravim, "ko'ngilni poklash va uni dunyoviy xohishlardan, o'ylardan va yomonliklardan tozalash zarurligini ta'kidlaydi. Ko'ngilni tozalash jarayoni, shaxsning ruhiy taraqqiyoti uchun muhimdir. Bu jarayonda tasavvufiy zikr va ibodatlar yordamida inson o'z ichki dunyosini o'zgartiradi va poklaydi"⁷. Shayx Ravim ko'ngilni mustahkamlash va uning ichki tinchligini topish uchun sabr va toqatni zarur deb biladi. U sabrni ko'ngilning mustahkamligi va haqiqiy baxtga erishish yo'lidagi asosiy vosita sifatida ko'radi. Sabrlilik, ko'ngilni yengilmas va chalg'ituvchi his-tuyg'ulardan himoya qiladi. Shayx Ravimning fikriga ko'ra, ko'ngil har xil holatlarga kirishi mumkin: xursandchilik, g'azab, qayg'u, muhabbat va boshqalar. U, har qanday holatda ham ko'ngilni to'liq anglash va uning ustidan hokimiyatni qo'lga kiritishni o'rgatadi. Har bir holatni o'zining ma'naviy o'sishiga foyda keltirish uchun ishlatish zarur. Shayx Ravimning ko'ngil haqidagi fikrlari, insonning ichki pokligi, sabr, va ilohiy muhabbat orqali ma'naviy yuksalishga erishish yo'lini ta'kidlaydi. Uning ta'limotida ko'ngil Allohning nuriga to'lgan, pok va yuksalgan bir joy bo'lib, ruhiy taraqqiyotning markaziga aylanishi kerak.

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning shayxu pirlarga hurmati cheksiz bo'lgan. Temuriylar saltanatida faoliyat olib borgan Xoja Ahror Valiyini asarlarida ko'p marotaba tilga olgan. Buni "Boburnoma"dagi misollardan ham anglash mumkin. Bobur uni "Mullo bobo" deb ataydi. Xoja Ahror Valiyini Bobur o'ziga ma'naviy ustoz sifatida ko'rgan. Zahiriddin Muhammad Bobur, shuningdek, o'zining tasavvufiy qarashlari bilan ham tanilgan. U faqat bir davlat arbobi va shoir, balki, tasavvufning sirli va chuqur jihatlarini ham o'rgangan va o'z asarlarida tasavvufiy fikrlarni bayon qilgan. Uning tasavvufiy qarashlari, asosan, ruhiy poklanish, ilohiy muhabbat, va

⁶ Mo'minova Ch. Tasavvuf adabiyotida komil inson tushunchasi. Cyberleninka.ru. 310-b.

⁷ Mo'minova Ch. Tasavvuf adabiyotida komil inson tushunchasi. Cyberleninka.ru. 311-b.

insonning ichki olamini anglashga qaratilgan edi. Boburning tasavvufiy qarashlari uning hayoti va ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. U o'z asarlarida tasavvufiy g'oyalarni va tasavvufning asosiy tushunchalarini o'ziga xos tarzda ifodalagan. Bobur, o'zining hayotidagi ko'plab mashaqqatlar va jismoniy qiyinchiliklarga qarshi turishda tasavvufning ta'siridan foydalanishga harakat qilgan. Bobur tasavvufni nafaqat nazariy tushuncha sifatida, balki kundalik hayotda qo'llashga intilgan. Uning she'rlarida bu g'oyalar ko'pincha ochiq va yashirin tarzda ifodalangan.

Bobur o'z hayotida ko'p marta dunyo va undagi sinovlarni o'zaro taqqoslagan. Tasavvufda dunyo ko'pincha vaqtinchalik, o'tkinchi va haqiqiy yuksaklikka erishishga to'sqinlik qiluvchi hodisa sifatida qaraladi. Bobur ham o'zining tajribalari orqali bu g'oyani qabul qilgan va shu sababli u dunyo va uning zavqlari haqida ko'proq murosaga kelishga, haqqoniy hayotga intilish kerakligini ta'kidlagan. Shoir o'zining tasavvufiy qarashlarida, shuningdek, o'zlikni anglash va uning yuksak ma'nosiga yetishish zaruratini ko'rsatgan.

Tasavvufiy ta'limotning ta'sir Boburning ko'plab she'rlarida seziladi. Uning she'rlarida tasavvufning asosiy g'oyalari, xususan, sevgi, poklanish, o'zlikni anglash va ma'naviy o'sish kabi g'oyalar muhim o'rin tutadi. Bobur tasavvufni insonning ichki dunyosini tushunish va ruhiy tozalash vositasi sifatida qaragan.

Boburning ko'plab she'rlarida, sevgi va ishq mavzusi markaziy o'rinda turadi. Tasavvufda sevgi – ilohiy ma'rifatga olib boradigan eng muhim yo'l sifatida qaraladi. Boburda ishq nafaqat insoniy tuyg'ularni ifodalovchi hissiyot sifatida, balki Allohning muhabbatini, uni anglash va uning yo'lida sabr-toqat qilishni anglatadi. Bobur ishqni nafaqat insonlar o'rtasidagi sevgida, balki o'zining ilohiy maqsadlariga erishish yo'lida bir vosita sifatida ko'rgan. Boburning tasavvufiy qarashlarida poklanish va tavba muhim o'rin tutadi. U o'zining she'rlarida, asosan, insonning ruhiy holati, qalbning tozaligi va nafsni yengish haqida fikr yuritadi. Tasavvufda nafsni yengish, qalbni poklash va tavba qilish orqali ilohiy ma'rifatga erishish ta'limoti muhimdir. Bobur o'z hayotida ham, balki ijodida ham nafs va dunyo bilan bog'liq turli sinovlarga qarshi kurashgan va qalbini poklashni maqsad qilgan. Tasavvufda taqdir va vaqtni idrok etishning alohida o'rni bor.

Bobur, o'zining "Boburnoma" asarida, o'z hayotidagi ko'plab sinovlarni, muvaffaqiyatlar va mag'lubiyatlarni taqdirning bir qismi sifatida qabul qilgan. Bobur dunyo va uning rohatlarini ko'pincha vaqtinchalik va o'tkinchi deb hisoblagan. Tasavvufda dunyo faqat sinov va tajriba maydoni sifatida qaraladi, va haqiqiy yuksalish Allohga yo'l olishda, uning ilohiy hikmatlarini anglashda, va ma'rifatni olishda yashirin. Bobur ham o'z hayotida dunyo rohatlaridan mahrum bo'lgan, turli xil azoblar va sinovlarni boshidan kechirgan. Bobur, o'zining she'rlarida, ko'pincha

“Haq” deb ilohiy haqiqatga ishora qiladi. Tasavvufda Haq – bu Allohning o‘zi, barcha mavjudotning asosiy manbai va maqsadi hisoblanadi. Bobur bu haqiqatni izlashni, uni his qilishni va bu yo‘lda yurishni maqsad qilib qo‘ygan. U “Haq”ni topish uchun qalbni poklash va nafsga qarshi kurashishni zarur deb bilgan. Boburning she’rlarida tasavvufiy elementlar ko‘p uchraydi. Ishq, muhabbat, nafs va ruhiy poklanish kabi tasavvufiy tushunchalar badiiy ifodalarda o‘z aksini topadi. Boburning tasavvufiy qarashlari uning hayotini va ijodini chuqur ma’nolar bilan boyitgan.

“Oshiq o‘lg‘ach, ko‘rdum o‘lumni o‘zung‘a, ey rafiq,
O‘zga ko‘nglumning bu olamda harosi qoldimu?!” (201-b)

Baytda yuzaki olib qaralganda, umri davomida taqdirning barcha og‘ir zarbalariga uchragan, qismatning butun achchiq ko‘rguliklarini boshidan kechirgan odam uchun bu dunyoning qo‘rquvi qolmasligi haqida gap ketyapti, chunki bu olamdagi barcha xorlik va xo‘rligni boshidan kechirgan lirik qahramon uchun umrining qolgan qismida duch kelishi mumkin bo‘lgan qo‘rquvlar (xiyonat, aldov, kamsitilish, nafrat) endi hech narsaga arzimaydi.

Baytga tasavvuf jihatdan nazar tashlasak, oshiq bo‘lgan solik uchun bu dunyoning barcha hoy-u havaslari, quvonch-u gam-tashvishlari, g‘oliblik va mag‘lublik bir chaqaga arzimasligi, butun qalbi-yi idroki bilan Yor vasliga – Alloh tajalliysiga yetisishga intilgan oshiq uchun bu olamda hech qanday qo‘rquv qolmasligi ta’kidlanayotganini sezish mumkin.

N.Komilov ta’kidlaganidek, “muhabbat o‘zlikdan voz kechib, dunyoviy orzuniyatlarini yo‘qotish – mahv etishni talab qiladi. Boshqacha aytganda, dunyo muhabbatidan ko‘ngil uzmasdan Iloh muhabbatini qozonish mumkin emas. Dunyo muhabbati va Iloh muhabbati – bir-biriga zid ikki qutb: dunyoni degan kishi Iloh muhabbatidan, Ilohni degan kishi esa dunyo muhabbatidan yuz o‘girishi kerak. Ana shunday dunyo muhabbatidan yuz o‘girib, ilohiy ma’rifatni egallagan odam, dunyoviy-nafsoniy sifatlarga barham berib, ilohiy sifatlarni o‘zlashtiraverib, Zotning o‘ziga qo‘shiladi, ya’ni Zotda foniy bo‘ladi (muhabbatning xotimasi – fano)”⁸. Ko‘rinadiki, Boburning ushbu bayti uning tasavvuf ta’limoti, xususan, naqshbandiya tariqati talablari bilan ham chuqur tanishligini ko‘rsatadi. O‘z davrining falsafasi, xususan, she’riyatida mustahkam o‘rin egallagan tasavvuf talablaridan Boburning bexabar qolishi aslo mumkin emas.

Quyidagi ruboiysida esa may timsoli majoziy ma’noda qo‘llanilib kelgan.

“May tarkini qilg‘ali erurmen g‘amliq,
Bor tiyra ko‘ngulga har zamon darhamliq.

⁸ Komilov N. Komil inson. <https://kh-davron.uz/kutubxona/>

G‘am birla fasurdaliq halok etti meni,
May birla emish shodliq‘u xurramliq.” (301-b).

Bu she‘rda g‘am va shodlik, ichki qarama-qarshiliklar tasvirlanadi. She‘rda “may” va “g‘am” tushunchalari orqali hayotdagi ruhiy holatlar ifodalanadi. Shoir sharobni tark etish qarorini qabul qilganida ham, uning ichki olamidagi qayg‘u va g‘amlar barham topmaydi. Bu yerda sharob, ba‘zan g‘amlarni unutish vositasi sifatida ko‘rsatiladi, lekin shu bilan birga, u qalbni tinchlantirishning doimiy yo‘li emasligini anglatadi. Shoir g‘am va tashvishlarning o‘zini qanday azobga solishini tasvirlaydi, shu bilan birga, sharobni ichish orqali vaqtincha shodlik va xursandchilik topganini tan oladi. Ruboiyda shoir o‘zining ichki kurashini aks ettiradi. Sharob, bir tomondan, xursandchilik va zavq keltirsa, boshqa tomondan, vaqtincha bo‘lsa ham, g‘am va azoblarni yengillashtiradi. Shoir bu qarama-qarshiliklarni ifodalaydi va hayotdagi muammolarni hal qilishda ichki kurashlar haqida fikr yuritadi.

“Kelgilki, dame o‘lturubon may icholing,
Dunyo g‘amu ranjadinzamone kecholing.
Chun ayshu nishot lashkari saf tuzdi,
Ey mehnatu g‘ussa xayli, sizlar sijoling!” (307-b)

Bu she‘rda Bobur, may va uning keltirgan lazzatlari bilan dunyodagi g‘am va tashvishlarni unutilishi haqida so‘z yuritadi. She‘rda shodlik va mayning ta‘siri orqali ichki tinchlik va farovonlikka erishish istagi ta‘kidlanadi. Bu yerda sharob, vaqtincha baxt va tinchlikni taqdim etadigan bir vosita sifatida tasvirlanadi. Bobur, shodlikni topish uchun vaqtincha g‘amlarni unutishni istaydi. Bu yerda shoir shodlik va rohatni tasvirlaydi va mehnat, qayg‘u va g‘amlarni ular uchun chetga surib qo‘yishni taklif qiladi. She‘rda Bobur, vaqtincha baxt va shodlikni topish orqali dunyo azoblaridan qochishni tavsiya etadi. Bobur shodlikni va rohatni afzal ko‘rgan holda, g‘am va qayg‘ulardan chetlanishga chaqiradi. Biroq, bu o‘tmishdagi holatni ko‘rsatish bilan, she‘rda ruhiy holatni va ichki hotirjamlikni izlashni ifodalaydi.

“Bobur tasavvufning ulkan bilimdoni. U qo‘liga qilich ushlagan shoh. Lekin bu qilich bilan nafsni yengib bo‘lmasligini teran tushunganligi uchun ham u tasavvufga kuchli qiziqish paydo qilgan. Tasavvuf – jangchining yo‘li emas, oshiqning yo‘li. Mana shuning uchun ham Bobur shoir va oshiq sifatida bu yo‘ldan yurish lozimligiga tabiiy ehtiyoj sezgan”⁹.

“Gar sidq bila birovki oshiq bo‘lg‘ay,
Ma‘shuq visoli anga loyiq bo‘lg‘ay.
Pir ollida topqusi murodin beshak,

⁹ Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва таракқиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами. дисс.филол. фан. д-ри. – Т.:177-бет.

Har kimki agar muridi sodiq bo'lg'ay." (363-b)

Bu she'rda Bobur, tasavvufiy ma'nolarni o'zida mujassam etgan, oshiq va ma'shuq o'rtasidagi ruhiy aloqani tasvirlaydi. She'rda, oshiqning ma'shuqni qanday sevishi va ma'shuqning o'ziga mos bo'lishi haqida so'z yuritiladi. Bu yerda shoir, sevgi va oshiq-ma'shuq munosabatlarining sidq (chin) bo'lishini ta'kidlaydi. Shoirning fikriga ko'ra, agar biror kishi chin yurakdan oshiq bo'lsa, ma'shuq uning sevgisiga loyiq bo'lishi kerak. Ya'ni, sevgi faqat samimiy bo'lishi, ikkalasi ham bir-biriga munosib bo'lishi zarur. Shoir, tasavvufiy qarashlarga ko'ra, pir (ustoz) yo'lida sodiq bo'lishni ta'kidlaydi. Sodiqlik, ya'ni muridning o'z ustoziga bo'lgan sodiqligi, uni maqsadlariga yetkazadi. Shoir bu yerda muridning to'g'ri yo'lida bo'lishi va ustozining yo'lidan borishi muhimligini aytadi. She'rda Bobur oshiq va ma'shuqning tasavvufiy talqiniga o'xshash shaklini keltiradi. Ularning munosabati faqat tashqi ko'rinishdan emas, balki ichki sadoqat, sevgidan iborat bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Pir va murid munosabati ham bu ma'noda tasavvufiy yo'lida sodiqlik va sadoqatni ifodalaydi. Bobur, o'zining ichki maqsadlariga yetish uchun ustozning (pirning) yo'lidan borishni tavsiya etadi.

“Oludai yuz tuman ma'osiy bo'lmoq,

Yuz ranju tuman azob xosi bo'lmoq.

Ko'p yaxshi ekin ahli xiradning qoshida,

Kim, og'ritibon atoni osiy bo'lmoq.” (301-b)

She'rdagi har bir misrada Bobur insonning maqsadga erishish yo'lida duch keladigan qiyinchiliklar va sinovlarni, shuningdek, hayotning murakkab va ba'zan achchiq tomonlarini o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Boisi inson tug'ilib hayoti davomida qanday kunlarni yashamasin umri poyoniga yetgach qilgan ishlarining javobini berishi aniqligini ta'kidlaydi. “Yuz tuman ma'osiy” va “yuz ranju tuman azob” so'zlari orqali hayotning qorong'u va og'ir tomonlarini tasvirlaydi. Bu yerda Bobur o'zining dard va azoblariga urg'u beradi. She'r, umumiy ma'noda, inson hayotining murakkabligini, insonlarning maqsadiga erishishda duch kelgan azoblari va kurashlarini anglatadi.

“Islom uchun ovvorai yoziy bo'ldum,

Kufforu hunud harbsoziy bo'ldum.

Jazm aylab edim o'zni shahid bo'lmoqqa,

Alminnatulillohki, g'oziy bo'ldum.” (319-b)

Bu to'rtlikda Bobur o'zining diniy e'tiqodini, Islom uchun kurashish niyatini va uning maqsadlari yo'lida o'tgan yo'lini ifodalaydi. She'rda ishlatilgan so'zlar va tasvirlar Boburning shaxsiy ishonchi, maqsadlari va diniy vazifalarini aks ettiradi. Bobur o'zining Islom dini uchun kurashayotganini, shu yo'lida jabr va mashaqqatlarga dosh berayotganini ta'kidlaydi. “Ovvorai yoziy bo'ldum” so'zlari orqali Bobur, o'zini Islom uchun fidokorona kurashgan deb hisoblaydi. Bobur bu yerda o'zining maqsadi uchun

qilgan harakatlarini, xalqining diniy himoyasini o‘z zimmasiga olganini ifodalaydi. “Jazm aylab” degan ibora orqali u, o‘zining qat’iyatini va g‘azabini ifodalaydi. Bobur bu qat’iyat bilan Islom yo‘lida o‘z jonini qurbon qilishni istagan, lekin oxir-oqibat “g‘oziy bo‘ldum” deb, g‘azot (jang)da ishtirok etgani va maqsadiga erishganini ta’kidlaydi. Bu she’rda Bobur o‘zining diniy e’tiqodi va maqsadlariga bo‘lgan chuqur sadoqatini, ayni paytda, Islomni himoya qilish uchun qilgan kurashini ifodalagan.

“Hammomki, to maskani jonona emish,

Anda parilar husnig‘a devona emish.

Ul xud paridur, borcha mulozimlari ham,

Alqissa(ki), hammom parixona emish!” (297-b)

Bu she’riy parchada, tasavvufiy va metaforik elementlarni o‘zida jamlagan qiziqarli misollarni tashkil etadi. She’rda hammomning tasvirlanishi, uni ajoyib bir joy sifatida ko‘rsatib, buni parixona bilan solishtirishi orqali bir nechta chuqur ma’nolarni anglatadi. “Jonona” so‘zi, ayniqsa, sevgi va jo‘shqin tuyg‘ularni ifodalaydi, bu yerda hammom “jonona” sifatida, odatiy tozalash joyidan farqli o‘laroq, ma’naviy bir tajriba sifatida ko‘rsatiladi. “Parilar” so‘zi, ko‘pincha go‘zallik va muqaddaslikni anglatadi va Bobur bu go‘zallikni “devona” bo‘lish bilan ta’riflaydi, ya’ni uning ta’sirida inson ongsiz yoki ma’shum bo‘lishi mumkin. Bu go‘zallik, hammomning tasavvur qilingan muqaddas va osmoniy tabiatiga qarshi bir qarashni hosil qiladi. Bu qismda, hammomdagi go‘zallikni tasvirlayotgan shoir, o‘zining ma’naviy o‘zgarishlarini ifodalaydi. Bobur hammomni “parixona” deb ataydi, ya’ni u faqat jismoniy emas, balki ruhiy tozalash, go‘zallik va tasavvufiy mukammallikni anglatadi. Bobur bu yerda hammomni, haqiqiy ma’noda, xuddi jannat yoki osmoniy bir makon sifatida tasvirlamoqda. Umuman olganda, bu she’rda Bobur o‘zining tasavvufiy dunyoqarashini, go‘zallik va muqaddaslikni tasvirlashga uringan va buni oddiy hayotdagi bir voqea bilan solishtirib, chuqur ma’no kiritgan.

“Ruhum yaratib eding latofat birla,

Qilding anga tanni hamroh ofat birla.

Ruhumni chu tan uyiga kelturdung pok,

Mundin nori eltma kasofat birla.” (339-b)

Bu she’rda Bobur insonning ruhiy va jismoniy mavjudligini tasavvufiy nuqtai nazardan ifodalaydi. U ruhning va tananing o‘zaro bog‘liqligini, ularning yaratilishini va har biri o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lganini chuqur his-tuyg‘ular bilan tasvirlaydi. Bobur o‘zining ruhini Alloh tomonidan go‘zal qilib yaratilgan deb tasvirlaydi. Ruh bu yerda yuqori, nozik va mukammal bir mavjudot sifatida ko‘rsatilgan. She’rning yakunida Bobur ruhni kasofatdan (yomonlik va ifloslikdan) xoli bo‘lishini xohlaydi. Bu she’r Boburning tasavvufiy dunyoqarashini aks ettiradi, u ruhning mukammalligi va

tozaligini ta'kidlaydi. She'rdan ruhning oliyjanob va mukammal bo'lishi kerakligi, jismoniy dunyoning esa ruhning pokligini saqlashga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida chuqur ma'no yashiringan.

Tasavvufda ham aynan shu jihat Allohga bo'lgan bandaning ilohiy ishq bayon qilingan. So'fiylar, shayxlar, piru murshidlar qatori Bobur ijodida ham ilohiy ishq ko'p bora tilga olingan. Buni yuqorida shoirning lirik parchalaridan keltirilgan misollar ham isbotlab turibdi. Bobur realist shoir ekanligi hech kimga sir emas. Ammo uning yurtidan olisdaligi va bu olislikning shoir ko'ngliga sog'inchni olib kirishi, ilohiy ishqni bayon qilishiga sabab bo'lgan.

Ibrohim Haqqul aytganidek "tasavvufda axloq-odob kamoloti qanchalik muhim bo'lsa, tahliya-tasavvur va taxayyul salohiyati ham nihoyatda muhimdir. Tasavvuf ilohiy zavq va surur sirlarini kashf etarkan, insonga avvalo, nafsni yengish, yomon hulq va xususiyatlardan kechish tajribalarini o'rgatadi. Shuning uchun tasavvufning nufuzi hafaqat ilohiy ishq va faqru fanolikni ideallashtirganlar orasida, balki deyarli barcha ijtimoiy tabaqalar o'rtasida ham yuksak bo'lgan"¹⁰.

Darhaqiqat tasavvuf, diniy va ma'naviy jihatdan, odob-axloq va ichki kamolotning muhimligini ta'kidlaydi. Avvalo, tasavvuf ilohiy zavq va sururni kashf etishning yo'li sifatida nafsni yengishni, yomon sifatlardan qutulishni o'rgatadi. Tasavvufning asosiy maqsadi insonni nafsning yomon xususiyatlaridan tozalash, uning ruhini poklashdir. Bu o'z navbatida insonning nafsini yengish va ilohiy sevgini kashf etishda ulkan ahamiyatga ega.

Najmiddin Komilov tasavvuf ilmi haqidagi fikrlarini shunday bayon qiladi. "Tasavvuf – inson kamoloti, axloqiy poklanish haqidagi ilm dedik. Bu tushuncha komil inson konsepsiyasida aniq ko'zga tashlanadi. Inson uchun qayg'urish, uning ma'naviy kamolotini o'ylash tasavvufning doimiy o'zak masalasi bo'lib kelgan. Ayniqsa, insonning botiniy olami, ichki ziddiyatlari, ruh va jism orasidagi kurash so'fiylarni ko'p qiziqtirgan. Insonning hayotdagi o'rni, jamiyat bo'lib yashash tartiblariga ham shu mavqedan turib qaralgan chunonchi, ijtimoiy nizolar, urush-janjallar, mulkiy tengsizlikning tub mohiyati, bosh sababini ham tasavvuf inson tabiati va siyratidan qidiradi, insonning axloqini tuzatishni uning tabiatidagi salbiy, hayvoniy kuchlarni mavh etishdan boshlash kerak, deb tushuntiradi"¹¹.

Yuqoridagi fikrdan anglashiladiki, tasavvuf, insonning ma'naviy rivojlanishi va ichki poklanishi bilan bog'liq bo'lib, uning asosiy maqsadi komil insonni yaratish, ya'ni insonni ruhiy va axloqiy jihatdan toza va mukammal qilishdir. Tasavvuf, faqat jismoniy

¹⁰ Хаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами. дисс.филол. фан. д-ри. – Т.: 17-бет.

¹¹ Komilov N. Komil inson. <https://kh-davron.uz/kutubxona/>

emas, balki ruhiy kamolotga ham katta e'tibor qaratadi, chunki ichki xususiyatlar va axloqiy poklanish tashqi xulq-atvorni shakllantiradi. Bu jarayon esa, faqat ruhiy yuksalishga olib kelmay, balki jamiyatdagi adolat, tinchlik va uyg'unlikni ham shakllantirishga yordam beradi.

Nasiba Bozorovanning fikricha "Tasavvufda qalb tarbiyasi muhim sanalgan. Shuning uchun mutasavviflar ko'ngil holi, hayoti kamolotga erishish asrori haqida keng bahs yuritishgan. Ko'ngilning tasavvuf she'riyatidagi o'rni ham alohida. Bunga sabab tasavvuf she'riyatining inson e'tiborini ko'ngilga jalb etib, qalb va ko'ngil sirlarini ochishga ko'p kuch sarflagan, Alloh va odam munosabatini ko'ngil yo'li va ko'ngil ehtiyojlari orqali hal etishda katta natijalarga erishgan she'riyat sanalganidir. Tasavvufiy she'riyatda ko'ngil tubdan yangi mohiyat kasb etdi. Ya'ni u haq tajalligohi Arsh Allohning taxti darajasiga ko'tarildi."¹²

Xulosa. Tasavvuf, nafaqat axloqiy kamolotni, balki qalb va ko'ngilning tozaligi hamda ularning o'zgarishini o'rganishni muhim deb hisoblaydi. Tasavvufda qalb tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Mutasavviflar qalbni tozalash, uning ichki holatini yaxshilash va insonni ruhiy kamolotga yetkazish yo'lidagi amallarni muhim deb bilishadi. Bu jarayon, qalbning sofliqi, Alloh bilan bog'lanish va ichki tinchlikka erishish uchun zarurdir. Shuning uchun, tasavvufda qalbni tarbiyalash va uning holatini o'rganish juda katta ahamiyatga ega. Tasavvuf she'riyatida ko'ngilning o'rni alohida. Bu she'riyat ko'ngilning sirlarini ochishga, insonning ichki dunyosiga, ruhiyatiga va ma'naviy ehtiyojlariga e'tibor qaratishga intiladi. Ko'ngil butun bir ruhiy holatni ifodalaydi. Tasavvuf she'riyati, Alloh bilan odam o'rtasidagi munosabatni ko'ngil orqali hal qilishga katta e'tibor beradi. She'rlar ko'pincha ko'ngilning ehtiyojlari, uning iztirobi va ilohiy ishqqa bo'lgan ehtiyoji haqida so'zlaydi. Tasavvuf she'riyatida qalb yangi mohiyat kasb etadi. Bu, ko'ngilning nafaqat insonning ichki holatini aks ettirishi, balki Allohning nuri va ilohiy sirlarining aks etgan joyiga aylanishi demakdir. Shunday qilib, qalb, tasavvufiy qarashlarda, Allohning taxti yoki "Arsh" darajasiga ko'tariladi. Bu qalbning Alloh bilan bevosita aloqasini, uning ichki va tashqi dunyo bilan uyg'unligini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Husanova K. Tasavvufiy timsollarning she'riyatdagi o'rni. <https://zenodo.org/> 138-b.
2. Haqqul I. Asrori Halloj. <https://kh-davron.uz/kutubxona>
3. Усмон Нурий Тўпбош. Бир кўза сув. – М., 2010, 41-b.
4. Komilov N. Vahdatul vujud va vahdatush shuhud. <https://kh-davron.uz/kutubxona/>

¹² Bozorova N. Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil obrazi. – T.: Fan, 2009. – B. 25.

5. Djuraboyeva D. Ibn Haldunning “Muqaddima” asarida Amir Temur siymosining yoritilishi. <https://wordlyknowledge.uz>. 143-b.
6. Mo‘minova Ch. Tasavvuf adabiyotida komil inson tushunchasi. Cyberleninka.ru. 310-b.
7. Komilov N. Komil inson. <https://kh-davron.uz/kutubxona/>
8. Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами. дисс.филол. фан. д-ри. – Т.:177-бет.
9. Bozorova N. Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘ngil obrazi. – Т.: Fan, 2009. – В. 25.

Named Entity Recognition for Confidential and Military Texts in the Uzbek Language

Obidjon Bozorov

National University of Uzbekistan, bozorov.obid@gmail.com

Abstract

This thesis presents a specialized Named Entity Recognition (NER) system for identifying sensitive entities in Uzbek confidential and military texts. By fine-tuning the bertbek-ner-uznews transformer model with domain-specific synthetic data, we achieved an F1-score of 89.6% across seven custom entity categories. The system addresses critical gaps in Uzbek NLP for security applications and provides a foundation for Data Loss Prevention (DLP) integration.

Keywords: Named Entity Recognition, Uzbek NLP, Military Text Processing, Information Security

1. Introduction

The widespread use of textual data in governmental and defense environments has increased the need for automated information security solutions. Named Entity Recognition (NER) plays a vital role in identifying sensitive entities within documents such as military codes, ranks, operations, and classified data. While most existing NER models are trained for global languages like English or Russian, there is a lack of domain-specific tools for the Uzbek language, especially in security contexts.

This research addresses this gap by fine-tuning a transformer-based model for NER in Uzbek, introducing new entity classes: military rank (B-RANK), military equipment (B-EQUIP), military codes (B-CODE), secret information (B-SECRET), military units (B-MIL), dates (B-DATE), and locations (B-LOC).

2. Related Work

NER has evolved from rule-based and statistical models (HMM, CRF) to transformer-based architectures like BERT, which have significantly improved entity recognition performance. Several Uzbek NER models exist, including bertbek-ner-uznews, but these lack specific labels for confidential or military-related entities. Specialized NER models for medical, legal, and financial domains demonstrate that domain adaptation is crucial for achieving optimal performance in specialized contexts.

3. Methodology

3.1 Dataset Development

Since real confidential military documents cannot be disclosed, we developed a comprehensive synthetic dataset in BIO format. The dataset generation process involved:

1. **Domain Analysis:** Analysis of publicly available military terminology and document formats
2. **Template Creation:** Development of 150 document templates representing various military document types
3. **Content Generation:** Creation of 5,000 synthetic documents with 75,000 sentences
4. **Annotation:** Manual annotation by three experts (94.2% inter-annotator agreement)

Dataset Statistics:

- Total sentences: 74,832
- Total tokens: 892,156
- Annotated entities: 156,743
- Training/Validation/Test: 80%/10%/10%

Entity Categories:

- **B-MIL:** Military units and formations
- **B-RANK:** Military ranks and positions
- **B-CODE:** Operational codes and classifications
- **B-EQUIP:** Military equipment and weapons
- **B-SECRET:** Confidentiality markers
- **B-DATE:** Temporal references
- **B-LOC:** Strategic locations

3.2 Model Architecture

We selected bertbek-ner-uznews as the base model and implemented strategic fine-tuning with:

Training Configuration:

- Batch size: 16
- Learning rate: 3e-5 (with layer-wise scheduling)
- Epochs: 15 with early stopping
- Optimizer: AdamW with weight decay
- Loss function: Cross-entropy with label smoothing

3.3 Evaluation

Performance was measured using standard metrics:

- **Precision:** $P = \frac{TP}{TP + FP}$
- **Recall:** $R = \frac{TP}{(TP + FN)}$

• **F1-Score:** $F1 = \frac{2 \times (P \times R)}{(P + R)}$

4. Results and Discussion

4.1 Overall Performance

The fine-tuned model demonstrated significant improvements over the baseline:

Metric	Baseline	Fine-tuned	Improvement
Precision	76.3%	90.4%	+14.1%
Recall	71.8%	88.9%	+17.1%
F1-Score	74.0%	89.6%	+15.6%

4.2 Entity-Specific Analysis

Entity	Precision	Recall	F1-Score
B-RANK	96.1%	94.8%	95.4%
B-DATE	94.7%	93.1%	93.9%
B-MIL	93.2%	91.7%	92.4%
B-LOC	91.8%	90.3%	91.0%
B-CODE	89.7%	87.2%	88.4%
B-EQUIP	88.4%	86.9%	87.6%
B-SECRET	85.9%	82.4%	84.1%

High-performing categories like B-RANK and B-DATE benefited from structured patterns and standardized formats. **B-SECRET** presented challenges due to high linguistic variability in confidentiality expressions.

4.3 Error Analysis

Main error types identified:

- **Boundary detection errors (23%):** Incorrect entity boundaries for multi-word designations
- **Category confusion (18%):** Inter-category confusion, especially between B-EQUIP and B-CODE
- **Novel variants (15%):** Entities not represented in synthetic training data

4.4 Practical Implementation

System Specifications:

- Model size: 112M parameters
- Inference speed: 145 sentences/second (GPU)
- Memory requirement: 2.3GB VRAM
- API response time: <200ms for document analysis

5. Security and Privacy Considerations

The research prioritizes security throughout development:

- **No real data exposure:** Exclusive use of synthetic data

- **Secure development environment:** Isolated, secured development
- **Deployment security:** On-premises hosting recommendations with encrypted communications
- **Ethical compliance:** Strict adherence to confidentiality guidelines

6. Future Work

Planned extensions include:

1. **Dataset Expansion:** Additional document types and multi-lingual support
2. **Multimodal Integration:** PDF processing and OCR capabilities
3. **Active Learning:** Continuous improvement with minimal annotation
4. **Domain Extensions:** Medical, financial, and legal applications
5. **Real-world Validation:** Partnerships for practical testing

7. Conclusion

This research successfully demonstrates the development of specialized NER systems for Uzbek confidential and military texts. Key achievements include:

- **Novel Application:** First specialized NER system for Uzbek military contexts
- **Strong Performance:** 89.6% F1-score across custom entity categories
- **Security Compliance:** Methodology ensuring no confidential data exposure
- **Practical Applicability:** Integration potential with existing DLP systems

The developed system addresses critical cybersecurity infrastructure gaps for Uzbek-speaking organizations while establishing a methodological framework for secure NLP development in sensitive domains. This work demonstrates that sophisticated NLP capabilities can be developed responsibly for sensitive applications while contributing to digital equity and technological sovereignty.

Limitations include synthetic data constraints, evolving terminology requirements, and potential cross-domain generalization challenges. Despite these limitations, the research provides a solid foundation for advancing secure NLP applications in under-resourced languages.

The successful integration of security considerations throughout development provides a template for responsible AI development in sensitive applications, demonstrating the balance between technical advancement, security requirements, and ethical responsibility.

References

1. Devlin, J., Chang, M. W., Lee, K., & Toutanova, K. (2019). BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. *Proceedings of the 2019 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies*, 4171–4186.

2. Huang, Z., Xu, W., & Yu, K. (2015). Bidirectional LSTM-CRF Models for Sequence Tagging. *arXiv preprint arXiv:1508.01991*.
3. Mengliev, D., Barakhnin, V., Abdurakhmonova, N., & Eshkulov, M. (2024). Developing named entity recognition algorithms for Uzbek: Dataset insights and implementation. *Data in Brief*, 54, 110413.
4. Mengliev, D., Barakhnin, V., Eshkulov, M., Ibragimov, B., & Madirimov, S. (2024). A comprehensive dataset and neural network approach for named entity recognition in the Uzbek language. *Data in Brief*, 58, 111249.
5. elmurod1202. (2023). bertbek-ner-uznews: BERT-based Named Entity Recognition for Uzbek News. *Hugging Face Model Hub*. Available at: <https://huggingface.co/elmurod1202/bertbek-ner-uznews>
6. Li, X., Li, D., Yang, Z., Zhao, H., Cai, W., & Lin, X. (2023). ND-NER: A Named Entity Recognition Dataset for OSINT Towards the National Defense Domain. In *Neural Information Processing. ICONIP 2022. Communications in Computer and Information Science*, vol 1792. Springer.
7. Nitzl, C., Cyran, A., Krstanovic, S., & Borghoff, U. (2025). The Application of Named Entity Recognition in Military Intelligence. In *Computer Aided Systems Theory – EUROCAST 2024. Lecture Notes in Computer Science*, vol 15172. Springer.
8. Wang, X. R., Xiong, Z. H., & Du, X. Y. (2020). NER in threat intelligence domain with TSFL. *Proceedings of the 9th International Conference on Natural Language Processing and Chinese Computing*, 157–169.

ONA TILI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Daminova Dilbar Melimurodovna

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi o‘qituvchisi
dilbardaminova9@gmail.com+998997470084

Annatsiya. Ona tili darslarida boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda eng muhim bosqich hisoblanadi. Chunki ushbu yoshda bolalar tilni o‘rganishga juda ochiq, nutqning asosiy qonuniyatlarini egallashga tayyor bo‘ladi. Shu sababli, boshlang‘ich sinflarda nutqiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirish ta‘lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, metodika, interfaol metodlar, yozma nutq, og‘zaki nutq, nutqiy kompetensiya muloqot madaniyati, ijodiy fikrlash, innovatsion texnologiyalar, o‘quvchilar faolligi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili darslari o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini egallashidagi eng asosiy bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning nutqi shakllanadi, ona tilini to‘g‘ri va ravon so‘zlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Shu sababli, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun samarali metodik yondashuvlar va usullarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Nutqiy kompetensiya tushunchasi va uning boshlang‘ich sinflardagi o‘rni nutqiy kompetensiya – bu insonning fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq, tushunarli, madaniyatli ifoda eta olish qobiliyati, shuningdek, muloqotda samarali ishtirok etish ko‘nikmasi. Boshlang‘ich sinflarda bu kompetensiyani shakllantirish quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

- Til qoidalarini o‘rganish va amalda qo‘llash;
- Lug‘at boyligini oshirish;
- Og‘zaki nutqda fikrlarni ravon ifoda etish;
- Nutq madaniyatini rivojlantirish;
- Muloqot qobiliyatini oshirish.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati shaxsiy taraqqiyot bolalar nutq orqali o‘z fikrlarini ifoda etib, o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashadi. Ta‘limda muvaffaqiyat yaxshi rivojlangan nutq o‘quvchilarga matnlarni yaxshi tushunishga, topshiriqlarni to‘g‘ri bajarishga yordam beradi. Ijtimoiy moslashuv nutq madaniyatining rivojlanishi jamiyatda samarali muloqotni ta‘minlaydi. Ijodiy fikrlash nutqiy ko‘nikmalar ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi.

Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari ogʻzaki nutqni shakllantirish, soʻz boyligini kengaytirish uchun koʻp oʻqish va tinglash mashqlari, soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrgatish, hikoya, rivoyat qilish, savollarga javob berish, suhbatda ishtirok etish koʻnikmalarini rivojlantirish.

Yozma nutqni rivojlantirish.

- Oddiy gaplar, soʻz birikmalari va matnlar yozishni oʻrgatish;
- Imlo va punktuatsiya qoidalarini oʻrgatish;
- Yozma topshiriqlar orqali fikrni ifodalashni rivojlantirish.

Nutq madaniyatini oshirish.

- Hurmat, odob-axloq qoidalariga rioya qilishni oʻrgatish;
- Tinglovchi va suhbatdoshlarga mos nutq shakllarini qoʻllashni shakllantirish.

Muloqot madaniyatini rivojlantirish.

- Guruhda va juftlikda muloqot qilish koʻnikmalarini rivojlantirish;
- Diskussiya va debatlar tashkil etish orqali fikr almashishni ragʻbatlantirish.

Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodikasi interfaol metodlar bu oʻyinlar, rolli oʻyinlar, hikoya qilish, musobaqalar, oʻquvchilarni faol ishtirokiga asoslangan metodlar, vizual va didaktik vositalardan foydalanish rasmlar, kartochkalar, diagrammalar, video materiallar, innovatsion texnologiyalar. Kompyuter dasturlari, multimedia vositalari yordamida nutqni rivojlantirish. Ijodiy topshiriqlar hikoya yozish, sheʼr yaratish, esse yozish orqali ifoda koʻnikmalarini oshirish. Mustaqil ish va uy vazifalari nutqiy mashqlarni mustaqil bajarishga oʻrgatish. Amaliy misollar va dars metodlari hikoya tuzish oʻquvchilarga rasm yoki voqea berilib, undan hikoya tuzish soʻraladi. Bu ularning fikrni tartib bilan ifoda etish qobiliyatini oshiradi. Savol-javob mashqlari oʻqituvchi savollar berib, oʻquvchilarni ogʻzaki javob berishga jalb qiladi. Soʻz boyligini oshirish mashqlari sinonimlar, antonimlar, koʻplik, birlik shakllari ustida ishlar. Dialoglar tashkil qilish oʻquvchilar juftlikda muloqot qilish orqali nutq madaniyatini oʻrganadi.

Muammolar va yechimlar nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda oʻquvchilarning nutq madaniyati va lugʻat boyligi pastligi muammo boʻlishi mumkin. Buni bartaraf etish uchun metodikada koʻproq oʻyinlar, hikoyalar, interfaol mashqlar qoʻllanilishi kerak. Oʻqituvchilarning metodik tayyorgarligi ham muhim: ular yangi innovatsion metodlarni oʻzlashtirishi va amaliyotda qoʻllashi zarur. Boshlangʻich sinflarda ona tili darslarida oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish oʻquvchilarning til madaniyatini, fikrlashini va muloqot koʻnikmalarini shakllantirishning asosiy qismidir. Ushbu jarayonda metodik yondashuvlarning oʻrni katta boʻlib, samarali metod va usullarni qoʻllash orqali oʻquvchilarning nutq koʻnikmalarini yanada yaxshilash mumkin. Shunday qilib, nutqiy kompetensiyani

rivojlantirish boshlang'ich sinflarda ona tilini chuqurroq o'rganish va amaliyotda qo'llashga yo'l ochadi, bu esa ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shabbazova Dilfuza Ruziqulovna. ONA TILI O'QITISH METODIKASI. Toshkent "METHODIST NASHRIYOTI" 2023.
2. Qosimova. K. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. -T.1964.
3. PIRLS 2011 baholash asosi. Ina V.S. Mullis, Maykl O. Martin, Enn M. Kennedi, Ketil L. Trong, Marian Sainsberi.
4. Daminova Dilbar Melimurodovna. METHODOLOGY FOR DEVELOPING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS. NOVATEUR PUBLICATIONS Journal NX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. -October -2023, 2023-yil.88-92-bet
5. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna. ISSUES OF MATHEMATICAL LITERACY DEVELOPMENT IN WORLD SCIENCE. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 03, March. (2023). -3-4-mart 2023, 2023-yil.307-311-betlar
6. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Muxtorova Lobar Abdimannabovna. PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. WEB OF SCIENTIST: WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. -3.Mar..2023, 2023-yil.971-976-bet
7. Daminova Dilbar Melimurodovna. TIMSS TADQIQOTLARIDA MATEMATIK BILIM VA KO'NIKIMLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH. Globallashuv sharoitida innovatsion texnologiyalar va oliy ta'limning dolzarb muammolari. Methodist nashriyoti" 2023-yil. 532-534-bet
8. Daminova Dilbar Melimurodovna. ONA TILINI FANLARARO O'QITISHDA NUTQIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. INTER EDUCATION. GLOBAL STUDY. -2024.N4(1), B:122-128-bet
9. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Salimova Ruxshona Chori qizi. KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHNING VAZIFALARI, METODLARI VA VOSITALARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS. 53-57-betlar.

10. Erdanova, Z., & Pardayeva, M. (2025). IMPROVING THE CONTENT OF THE METHODOLOGY OF WORKING ON TEXT IN TEACHING THE MOTHER LANGUAGE. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(1), 110-113.
11. Olimovna, E. Z. (2025). Improving the technology of working with text in native language lessons. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(3), 558-561.
12. Olimovna, E. Z. (2024). REFLECTIVE IN FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS CULTURE DEVELOPMENT PROCESSES IMPROVEMENT. *International Journal of Pedagogics*, 4(04), 87-90.
13. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
14. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
15. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
16. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>
17. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
18. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
19. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
20. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "UNIVERSITET 4.0" MODELINING PEDAGOGIK JIHATLARI

**Izlanuvchi
Yodgorova Sehriyo**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy oliy ta'lim tizimiga joriy etilayotgan "Universitet 4.0" modelining pedagogik jihatlari yoritilgan. Unda raqamli ta'lim, interaktiv metodlar, har bir talabaga alohida yondashuv, innovatsion texnologiyalarni o'qitish jarayoniga integratsiyalash kabi jihatlari pedagogik jihatlari keltirilgan.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются педагогические аспекты внедрения модели «Университет 4.0» в современную систему высшего образования. Представлены такие педагогические аспекты, как цифровое обучение, интерактивные методы, индивидуальный подход к каждому студенту, интеграция инновационных технологий в образовательный процесс.*

***Annotation.** The article examines the pedagogical aspects of the implementation of the "University 4.0" model in the modern system of higher education. Such pedagogical aspects as digital learning, interactive methods, an individual approach to each student, and the integration of innovative technologies into the educational process are presented.*

Mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini oshirishda ijtimoiy boshqaruv mehanizmlarini takomillashtirish, yoshlarni oliy ta'limga qamrovini oshirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish sohasidagi mavjud ilmiy-uslubiy ishlanmalarning amaliy ahamiyatini qayd etib, ta'lim sifatini oshirishning bir qator yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlarni olib borishda pedagogik jihatlari muhim rol o'ynaydi. Ko'pgina tadqiqotchilar ta'lim sifatini aniqlash uchun zarur mezon va ko'rsatkichlarning yetarli darajada rivojlanmaganligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, tadqiqotchilar ta'lim sifatini oshirish turli metodologik yondashuvlar va indikatorlar majmuini taklif etmoqda. Bu ko'rsatkichlar turli manbalardan, jumladan, ta'lim tizimining modellari, uning tuzilgan maqsadlari, samarali faoliyat mezonlari hamda boshqaruv muammolaridan olinadi. Har bir model yoki yondashuv ta'lim muassasasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllanadi va rivojlanadi[1]

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga

ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5847-sonli farmoni qabul qilindi[2].

Zamonaviy sharoitda o'quv jarayonining samarali bo'lishi uchun axborot-ma'lumot tizimlari, elektron darslik va ensiklopediyalar, internet resurslarini kiritish zarur. Videomateriallardan foydalanish ham talabaning bilimini faollashtirishga yordam beradi va muhim axborot imkoniyatlariga ega. Elektron ta'lim resurslari va ular asosida shakllantirilgan yangi axborot-ta'lim muhiti ta'lim sifatini oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Raqamli texnologiyalar talabalarning muammoni yechish, fikrlash strukturasi yaratish va jarayonni tushunish kabi kasbiy faoliyatini talab qiladigan qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi[3].

Oliy ta'lim muassasalarida "Universitet 4.0" modelining pedagogik jihatlari bu - o'qitish usullari, metodlari, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlar, darsni tashkil etish shakllari va ta'lim mazmuniga oid o'zgarishlardir. "Universitet 4.0" modelida pedagogika an'anaviy yondashuvdan innovatsion va raqamli yondashuvga o'tadi.

Oliy ta'lim muassasalarida "Universitet 4.0" modelining pedagogik jihatlari quyidagilardan iborat:

Asosiy pedagogik jihatlari :

- talaba bilan o'qituvchi o'rtasidagi munosabat;
- ta'lim jarayonining markazida talaba shaxsi, qiziqishi va ehtiyojlari turishi;
- talabaga mustaqil izlanish, qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash imkoniyati uchun sharoit yaratilishi;

Raqamli pedagogik jihatlari:

- darslar onlayn platformalarda o'tkaziladi (Moodle, Zoom, Teams).
- virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar, sun'iy intellekt vositalari qo'llanishi;

Hozirgi zamon oliy ta'lim tizimi tez sur'atlarda rivojlanib, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar va tadqiqotlarga asoslangan yangi modellarga o'tmoqda. Ushbu yo'nalishda "Universitet 4.0" modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Bu model "Universitet 4.0, raqamli transformatsiya, tadqiqot va innovatsiyalar integratsiyasiga asoslangan bo'lib, ta'lim, fan va ishlab chiqarishni yaxlitlashtirishni nazarda tutadi. Shu kontekstda ilmiy muhitni shakllantirish va rivojlantirish "Universitet 4.0" ni amaliyotga joriy etishda hal qiluvchi omillardan biridir.

Oliy ta'lim muassasalarida "Universitet 4.0" modelini joriy etishning asosi - bu zamonaviy jamiyat va iqtisodiyotning talablariga mos, raqobatbardosh, innovatsion va tadqiqotga asoslangan ta'lim tizimini shakllantirishdir. Oliy ta'lim muassasalarida "Universitet 4.0" modelida pedagoglik ahamiyati juda ham muhim hisoblanadi.

"Universitet 4.0" modelining pedagogik jihatlari haqida gap ketganda, avvalo pedagog kadrlar bilimi, dunyoqarashi va fikrlashi birinchi o'ringa chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, "Universitet 4.0" modelida pedagogning bilim darajasi, talabalar bilan o'zaro munosabati hamda zamonaviy bilimga ega ekanligi muhim hisoblanadi. Ushbu modelni muvaffaqiyatli joriy etishda pedagogning ilmiy salohiyati mavjudligi, oliygohning rivojlanishi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. <https://president.uz/uz/lists/view/2966>
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. I.U.Ziyoeva. "Universitet modellari boshqaruvida zamonaviy standartlarni joriy etish yo'nalishlari". "XXI-asr pedagogi imidji: Tarixiy meros, xalqaro tajriba, muammolar va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. №7.2025. https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/09504222241295625?utm_source
5. Azizxo'jayev A.A. "Raqamli ta'lim va uning pedagogik asoslari". — Toshkent, 2023.
6. Unesco.Report on Digital Education, 2022.

ITALIYAN BADIY ASARLARIDAGI REALIYALAR VA ULARNING TARJIMA JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Vasliddinova Gulmira Rustam qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti 2-kurs magistranti

gulmirarustamqizi@gmail.com

+998 90 196 56 80

O'zDJTU Italiyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasini mudiri B.S.Ergashova taqrizi asosida

Annotatsiya:

Mazkur tezisdagi italiyan badiiy adabiyotida uchraydigan realiyalar va ularning tarjima jarayonida tutgan o'rnini tahlil qilinadi. Realialar – ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan, boshqa tilda to'liq ekvivalenti bo'lmagan elementlar bo'lib, ular asarning madaniy fonini boyitadi va tarjimon uchun muhim vazifa hisoblanadi. Ishda Dante, Calvino va Eco kabi yozuvchilarning asarlari asosida realialarning turlari, tarjima strategiyalari hamda madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati yoritilgan. Xulosa qismida realialarni tarjima qilishda izoh, adaptatsiya va boshqa usullar samarali yondashuv sifatida taklif etiladi.

Kalit so'zlar: realiya, badiiy tarjima, italiyan adabiyoti, madaniy kontekst, tarjima strategiyalari, adaptatsiya, intertekstual yondashuv.

Аннотация:

Данное исследование посвящено анализу реалий, встречающихся в итальянской художественной литературе, и их роли в процессе перевода. Реалии – это культурно-специфические элементы, не имеющие точного эквивалента в другом языке, которые обогащают художественный текст и создают трудности для переводчика. На материале произведений Данте, Кальвино и Эко рассматриваются типы реалий, переводческие стратегии и их значение в межкультурной коммуникации. В заключении предлагаются различные методы передачи реалий, включая комментарии, адаптацию и интертекстуальные подходы.

Ключевые слова: реалия, художественный перевод, итальянская литература, культурный контекст, переводческие стратегии, адаптация, интертекстуальный подход.

Abstract:

This thesis examines the role of cultural realia in Italian literary works and their significance in the process of translation. Realia, understood as culture-specific

elements without direct equivalents in other languages, enrich the cultural background of a text while posing challenges for translators. Drawing on the works of Dante, Calvino, and Eco, the study explores the types of realia, translation strategies, and their importance in cross-cultural communication. The conclusion suggests practical approaches such as explanatory notes, adaptation, and intertextual methods to ensure the effective rendering of realia in translation.

Keywords: realia, literary translation, Italian literature, cultural context, translation strategies, adaptation, intertextual approach.

Zamonaviy dunyoda tarjima jarayoni madaniyatlararo muloqotning asosiy vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, badiiy adabiyot tarjimasida realiyalar – ya’ni, ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan va boshqa tillarda ekvivalenti bo‘lmagan elementlar – katta rol o‘ynaydi. Italiyan adabiyoti, o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan, realiyalarning tarjimasida qiyinchiliklar tug‘diradi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, globalizatsiya davrida italiyan klassik yozuvchilari (masalan, Dante, Calvino, Eco) asarlarini o‘zbek yoki boshqa tillarga tarjima qilishda madaniy farqlarni yetkazish zaruriyati ortib bormoqda. Bu jarayon nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va semiotika sohalarini ham qamrab oladi, chunki noto‘g‘ri tarjima o‘quvchini asl matndan uzoqlashtirishi mumkin.

“Realiya” atamasi (lotincha “res” – narsa) bir madaniyatga xos bo‘lgan va boshqa madaniyatda ekvivalenti bo‘lmagan haqiqiy yoki xayoliy elementlarni bildiradi. Badiiy adabiyotda realiyalar asarning madaniy kontekstini boyitadi, o‘quvchiga muallifning dunyoqarashini yetkazadi. Masalan, realiyalar kiyim-kechak, an’analar, tarixiy voqealar yoki til iboralari shaklida namoyon bo‘ladi. Ular asarning autentiyligini ta’minlaydi va tarjimon uchun asosiy muammo manbai hisoblanadi, chunki ularni to‘g‘ri yetkazish madaniy adaptatsiyani talab qiladi.

Italiyan adabiyoti o‘zining boy merosi bilan ajralib turadi: Dante Aligierining “Ilohiy komediya” (Divina Commedia) asarida klassik va bibliyografik manbalar, Italo Calvinoning “Ko‘rinmas shaharlar” (Le città invisibili)da metaforik shaharlar, Umberto Econing “Gul nomi” (Il nome della Rosa)da O‘rta asr semiotikasi kabi elementlar mavjud. Bu asarlar Italiyaning Renessans, O‘rta asr va zamonaviy madaniyatini aks ettiradi, shuning uchun tarjima jarayonida italyan tilining leksik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, evropalik madaniy kontekstni hisobga olish zarur. Tarjimada realiya asl matndagi madaniy elementni maqsadli tilda yetkazishni bildiradi. Ular leksik bo‘shliqlar tug‘diradi, chunki tarjima qilinayotgan tilda ekvivalenti bo‘lmashligi mumkin. Tarjimon realiyani saqlash, adaptatsiya qilish yoki izoh berish

orqali ifodalaydi. Masalan, italiyan adabiyotida “piazza” (maydon) realiyasi nafaqat jismoniy joy, balki ijtimoiy markazni bildiradi va tarjimada bu ma’no saqlanishi kerak. Badiiy asarlarda madaniy realiyalar (bayramlar, an’analar) va ijtimoiy realiyalar (jamiyat tuzilishi, kasblar) asarning fonini yaratadi. Italiyan adabiyotida ular Renessans davri ijtimoiy tabaqalari yoki O’rta asr monastir hayotini aks ettiradi. Mazkur elementlar o’quvchiga madaniy immersiyani ta’minlaydi, ammo tarjimada madaniy farqlar tufayli yo’qotilishi mumkin.

Tarjima matnida realiya o’quvchini asl madaniyat bilan bog’laydi, asarning emotsional va intellektual ta’sirini saqlaydi. Noto’g’ri yetkazilgan realiya o’quvchini chalkashtirishi mumkin, shuning uchun tarjimon madaniyatlararo ko’prik rolini o’ynaydi. Masalan, italyan realiyalari o’zbek o’quvchisiga izoh orqali tushuntirilsa, asar yanada tushunarli bo’ladi.

Italiyan adabiyotida madaniy realiyalar ko’p: masalan, Dantening “Divina Commedia”sida klassik mifologiya elementlari (masalan, Virgil yoki Beatrice kabi shaxslar) madaniy merosni aks ettiradi. Kiyim-kechak (mantiya) va bayramlar (Carnevale) asarda madaniy kontekst yaratadi.

Tarixiy realiyalar o’rta asr voqealari yoki shaxslarini o’z ichiga oladi. Umberto Eco’ning “Il nome della rosa”da o’rta asr inkvizitsiyasi va monastir hayoti tarixiy realiyalar misolidir.

Jamiyat tuzilishi (feodalizm, burjuaziya) va kasblar (monax, ritsar) italiyan asarlarida ijtimoiy dinamikani ko’rsatadi. Calvino’ning asarlarida zamonaviy shahar hayoti ijtimoiy realiyalar orqali ifodalanadi.

Italyanacha iboralar va stilistik elementlar (masalan, Danteda florentin lahjasi) til realiyalaridir. Ular tarjimasida saqlanishi yoki adaptatsiya qilinishi kerak.

Itaycan tilning leksik boyligi (arxiv so’zlar) va grammatikasi tarjimasida qiyinchilik tug’diradi. Masalan, Umberto Eco’da lotin iboralarining tarjimasida ma’no yo’qolishi mumkin.

Tarjima strategiyalari: literal (to’g’ridan-to’g’ri), erkin (adaptatsiya), izohli (qo’shimcha tushuntirish). Realiyalar uchun ko’pincha izohli usul qo’llaniladi, masalan, izohlar yoki glossariy. O’ziga xos realiyalar (masalan, Calvinoda metaforik shaharlar) tarjimasida madaniy adaptatsiya talab qiladi, ammo bu asl ma’noni buzishi mumkin.

Italo Calvinoning “Le città invisibili”dan: Shaharlar (masalan, “Zora” yoki “Tamara”) metaforik realiyalar bo’lib, urban muammolarni aks ettiradi. Tarjimada poetik tilni saqlash qiyin, chunki italyanacha nuanslar yo’qolishi mumkin.

Umberto Econing “Il nome della Rosa” asarida O’rta asr monastiridagi lotin iboralarini va semiotik belgilar realiyalaridir. Tarjimasida arxaik so’zlar muammo tug’diradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, r ealiya tarjimaning markazida turib, asarning madaniy qiymatini saqlaydi. Muammolarni yengish uchun strategiyalarni (izoh, adaptatsiya) va AI ni qo‘llash zarur. Italiyan asarlarini tarjima qilishda realiyalarga e‘tibor madaniy tushunmovchiliklarni oldini oladi va asarning ta‘sirini kuchaytiradi. Masalan, realiyalarni to‘g‘ri yetkazmasa, o‘quvchi asarning emotsional va intellektual ta‘siridan mahrum bo‘lishi mumkin. Muammolarni yengish uchun bir qancha strategiyalarni qo‘llash mumkin: transkripsiya (asl so‘zni lotin harflari bilan yozish), kalkalash usuli (yangi so‘z yaratish), izoh berish (ma‘noni tushuntirish), moslashtirish (maqsadli madaniyatga adaptatsiya qilish) va almashtirish (o‘xshash mahalliy element bilan o‘rnini bosish). Umumiy yondashuvda intertekstual va madaniyatlararo usullarni qo‘llash realiyalarni yetkazishni samaraliroq qiladi, chunki ular madaniy kontekstni chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dante Aligieri. (1308–1321). Divina Commedia.
2. Italo Calvino. (1972). Le città invisibili.
3. Umberto Eco. (1980). Il nome della rosa.
4. Eugene Nida. (1964). Toward a Science of Translating.
5. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_cultural_references_in_the_Divine_Comedy
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Divine_Comedy
7. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_cultural_references_in_the_Divine_Comedy

ETNOTOPONIMLAR VA ULARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Qurbonova Maftuna Ibroyim qizi
tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida uchraydigan etnotoponimlar lingvistik va madaniy jihatidan tahlil qilingan. Etnotoponimlarning etnik kelib chiqishi, tarixiy omillari va mahalliy leksikadagi o'rnini aniqlangan holda, tilshunoslik nuqtai nazaridan baholandi.

Kalit so'zlar: etnonim, etnotoponim, toponim, semantika, tarixiy-etnik, Surxondaryo, toponimika, etnos, tarixiy tilshunoslik.

Annotation: This article analyzes ethnotoponyms found in Surkhondaryo region from a linguistic and cultural perspective. The ethnic origin, historical factors and place of ethnotoponyms in the local lexicon were determined and evaluated from a linguistic perspective.

Keywords: ethnonym, ethnotoponym, toponym, semantics, historical-ethnic, Surkhondaryo, toponymy, ethnos, historical linguistics.

Аннотация: В данной статье анализируются этнотопонимы Сурхандарьинской области с лингвистических и культурологических позиций. С лингвистической точки зрения определены этническое происхождение, исторические факторы и место этнотопонимов в местном лексиконе.

Ключевые слова: этноним, этнотопоним, топоним, семантика, историко-этнический, Сурхандарья, топонимия, этнос, историческая лингвистика.

Til va xalq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishda toponimlar, xususan, etnotoponimlarning o'rnini alohida ahamiyatga molik. Toponimlar nafaqat geografik atamalar, balki xalqning tarixiy, ijtimoiy, madaniy hayotidan darak beruvchi til birliklaridir. Surxondaryo viloyatining boy etnik tarixi va ijtimoiy, siyosiy o'zgarib borishi yillar davomida hududdagi toponimlarning xilma xil shakllanishida ham muhim rol o'ynagan. Va albatta etnik guruhlar nomidan yasalgan etnotoponimlarning tahlili bizga bu hududdagi tarixiy - etnolingvistik jarayon haqida ko'plab ma'lumotlarning yuzaga chiqishida yordam beradi. Shu o'rinda takidlab o'tish joizki tadqiqotchi olim T.Nafasovning yirik ilmiy asari bo'lgan "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" asarining kirish qismi etnotoponimlarni izohlash bilan

boshlangani ham etnik nomlarning naqadar muhim ahamiyatga molik ekanining yana bir isboti¹.

Etnotoponimlar etnik rivojlanib kelgan joy nomlari bo'lib, ular vujudga kelishiga ko'ra etnik guruhlar, qabilalar, urug' yoki millat nomlari asosida kelib chiqqan bo'ladi. Masalan, qabilalar asosida kelib chiqqan etnotoponimlarga: Qang', Qarluq, Chigil kabilar kirsa. Hudud asos qilib olingan etnotoponimlar: Cho'lob, Qatag'on kabilarni qamrab oladi. Arab va Eroniy millatlar ta'sirida vujudga kelgan etnotoponimlarga Arabxona, Parsiyon (Eroniy xalq bo'lgan Forslar nomidan kelib chiqqan) misol bo'la oladi. Markaziy Osiyoga ko'chib kelib yashagan arab, mo'g'ullar va fors-tojiklarning ham hudud etnosidagi ta'sir doirasi salmoqlidir. Shu jumladan T.Nafasovning nomzodlik ishida ham qadimiy so'g'd va turkiy nomlarni, shuningdek voha toponimiyasidagi o'zlashgan mo'g'ul, arab, fors-tojik lisoniy unsurlarni o'rganishga katta e'tibor berilgan². Yuqorida keltirib o'tilgan etnotoponimlarni o'rganishda ham T.Nafasovning voha toponimiyasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak etnotoponimlar tahlilida etnotoponim tarkibidagi morfemik tahlil va semantik dalillar muhim o'rin egallaydi. Semantik jihatidan etnotoponimlarni quyidagi guruhlariga bo'lishimiz mumkin. To'g'ridan to'g'ri kelib chiqqan etnik nomlar, bu turdagi etnik toponimlar bevosita etnonimga bog'langan: Qo'ng'iroq, Qang'li, Yuz, Qoraqasmoq, Qorabura, Qiyg'ochli. Ikkinchisi esa etnik-majoziy ifoda beruvchi toponimlar, ba'zan toponimlar ham tarixiy-etnik nomdan emas, balki xalq orasidagi berilgan majoziy nomdan kelib chiqadi: Yovqishloq ("yov" so'zining etnik yoki urushga aloqador nom bilan bog'liq bo'lishi mumkin), Bozoriq (Tarixda etnik guruhlarining savdo-sotiq aloqalari amalga oshirilgan joy nomi bilan bog'liq). Etnotoponimlar orqali xalqning o'z tarixiga munosabati, urf-odatlarini, ko'chib yurish yo'llari, qabilalararo aloqalari aniqlanadi. Masalan, Qo'rg'ontepa - qo'rg'on bo'lgan tepalik nomidan olingan yoki ehtimoliy tarixiy janglar vaqtida askarlar uchun istehkom vazifasini o'tagan. Qarluqt tepa – Qarluq eliga mansub bo'lgan urug'lar etnik jihatdan shu hududda yashagan. "Tepa" so'zi esa geografik jihatdan balandlik, baland joyni bildirib keladi. Chigilariq – "Chigil" etnonimi va "ariq" (doimiy suv oqib o'tadigan sun'iy ravishta qurilgan suv yo'li) qo'shilishidan hosil bo'lgan. Chigil yoki chiyal ko'rinishida uchraydigan bu etnotoponimning etnik kelib chiqishi chiq+il qo'shimchasidan yasalgan bo'lib tog' yon bag'rida yashovchi ma'nosini anglatadi. Yakkabog' – Bu nom ko'p joyda uchrasa ham ammo Surxondaryo hududida bu hudud "Yakka" – bir qabila yoki yagona, yolg'iz urug' asosida vujudga kelgan.

¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, 1988. –б 7-21.

² Нафасов Т. Қашқадарё области топонимлари. Фил. Фан. Ном. Дисс. 1968. –б 119.

Etnotoponimlar avvalo til materialidir . Buning ustiga barcha toponimlar kabi etnotoponimlar ham mahalliy xalq tilida tuziladi, yashaydi , talaffuz qilinadi, yerli xalqning tushuncha va tafakkurlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi³. Shu sababdan etnotoponimlarni lingvistik tomonlama tadqiq qilish mahalliy shevalarning tadqiqida ham muhim o'rin egallaydi. Negaki etnotoponimlarning yillar davomida fonetik jihatdan o'zgarib borishida mahalliy shevaning ta'siri yuqoridir. Shunga ko'ra Otajonovanning ishida etnotoponimlar quyidagi guruhlariga ajratib tahlil olib borilgan va biz ham shu o'rinda uning ishidan foydalangan holda bu guruhlariga Surxondaryo viloyatidagi etnotoponimlarni bo'lib chiqamiz. 1. Totemlar asosida yuzaga kelgan etnotoponimlar: Kiyikchi, Toychi, Qo'ng'iroq, Qarg'ali, Lachin, Ko'rto'g'ay, Qorabura; 2. Tamg'a va belgi asosida yuzaga kelgan etnotoponimlar: Qonjig'ali, Qo'shtamg'ali, Qiyot, Ochamayli, Qoraqasmoq; 3. Rang-sifat bildiruvchi so'zlardan yasalgan etnotoponimlar: Uzunqishloq, Langarboy, Yakkabog', Chigilariq, Cho'lob, Qiyg'ochli; 4. Miqdor bildiruvchi so'zlarga asoslangan etnotoponimlar. Yuztepa, Nayman(nayman so'zi sakkiz ma'nosini bildiradi); 5. Antroponimlarga asoslangan etnotoponimlar : Parsiyon, Lo'liq, So'fi, G'ozi, Qarluq, Do'ska(Do'sna).

Surxondaryo viloyatida uchraydigan etnotoponimlarning lingvistik-madaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu etnotoponimlar nafaqat shu hududdagi xalqning tarixiy xotirasi, balki til boyligi hamdir. Ular tarkibidagi etnik birliklar nomi, affixsal qo'shimchalar va semantik ma'no viloyat tarixining til orqali saqlanib kelayotgan shakli hisoblanadi. Etnotoponimlarni o'rganish orqali O'zbekiston hududidagi til taraqqiyotidagi muhim bosqichlarni va etnik tarixga oid ko'plab ma'lumotlarni aniqlash va tahlil qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Бегматов.Э. Жой номлари –маънавият кўзгуси.-Тошкент 1998. –б 66.
2. Эназаров Т. Ўзбекистон топонимлари : луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Фил.Фан.Док. .Дисс.автореферати,-Тошкент,2006.
3. Нафасов Т.Қашқадарё области топонимлари.Фил.Фан.Ном.Дисс.1968.-б 119. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент,1988. –б 7-21.
- 4.Отажонова А.Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари.Фил.Фан.Ном.Дисс.Тошкент 1997. б-29-30.
5. Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари.-Тошкент,2006. –б 152.
- 6.Turdiqulov SH.Lingvomadaniy kodlarning onomastic birliklarda ifodalanishi (Surxondaryo teotoponimlari misolida) fil.fan.fal.diss.-Termiz ,2023.-b
7. Хўжамбердиев .Й. Сурхондарё топонимлари тарихидан. – Термиз,2013.

³ .Отажонова А.Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари.Фил.Фан.Ном.Дисс.Тошкент 1997. б-29-30.

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA
ADIBLAR IJODINING BADIY TALQINI (SHAYBONIYXON IJODI
MISOLIDA)**

*Ruziyeva Dilnoza Furqatovna – O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika
instituti magistri
mroziyev787@gmail.com*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida o‘z davri adiblarining, xususan, Shayboniyxon ijodining badiiy talqini tahlil qilinadi. “Boburnoma” nafaqat tarixiy voqealar majmui, balki adabiy-estetik qarashlarni, davr adabiy muhiti hamda ijodiy shaxslarning obrazini yorituvchi noyob manba sifatida o‘rganiladi. Shayboniyxonning she‘riyati va ijodiy qiyofasi Boburnigohida qanday baholangani, uning badiiy jihatlari, tarixiy va adabiy ahamiyati tadqiq etiladi. Tadqiqotda matnshunoslik, adabiy tahlil va tarixiy-comparativ yondashuv metodlaridan foydalanilgan.*

***Kalit so‘zlar:** adabiy meros, badiiy talqin, she‘riyat, tarixiy-adabiy tahlil, ijod, madaniyat, siyosat, tarix, badiiy meros, adabiyot.*

KIRISH.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari alohida o‘rin tutadi. Bu asar nafaqat tarixiy xotiralar majmui, balki adabiy-tanqidiy manba sifatida ham qimmatga ega bo‘lib, unda XV–XVI asr siyosiy voqealari, ijtimoiy hayot manzaralari va davr adabiy muhiti keng yoritilgan. “Boburnoma”ning o‘ziga xos jihati shundaki, unda hukmdor va shoir sifatida Bobur zamondosh ijodkorlarni, adabiy an‘analarni ham badiiy-estetik mezonlar asosida baholaydi. Shu bois bu asar tarixiy-memoar janrdan tashqari, adabiy-tanqidiy qarashlarni ham o‘zida mujassam etgan nodir manba hisoblanadi.

Shayboniyxon tarixda ko‘proq siyosiy arbob, davlat rahbari sifatida mashhur bo‘lsa-da, uning ijodiy merosi ham alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘z davrida turkiy til asosida ijod qilgan shoir sifatida ham tanilgan. Bobur Shayboniyxon ijodiga xolisona yondashib, uning she‘riy merosini baholashga harakat qilgan. Ayniqsa, “Boburnoma”da Shayboniyxonning she‘riyatga bo‘lgan munosabati, poetik uslubi va badiiy qobiliyati haqida berilgan ma‘lumotlar adabiyot tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda “Boburnoma”da Shayboniyxon ijodining qanday talqin qilingani, Boburning unga bergan baholari, estetik qarashlari va zamon adabiy muhitidagi o‘rni

tahlil qilinadi. Shuningdek, Shayboniyxon ijodini o‘rganishda “Boburnoma”ning adabiy manba sifatidagi o‘rni va ahamiyati ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi.

Tahlil va natijalar.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari tarixiy-memuar janrining yorqin namunasi bo‘lib, unda davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti keng yoritilgan. Asarning alohida qimmatli jihatlaridan biri shundaki, Bobur unda nafaqat hukmdorlar, balki o‘z zamondosh ijodkorlarning ham shaxsiy va ijodiy qiyofasini tasvirlab beradi. Shu jumladan, Shayboniyxonning adabiy faoliyati ham “Boburnoma”da alohida tilga olinadi. Bu esa asarni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham bebaho manba sifatida o‘rganishga asos bo‘ladi.

Boburnoma – jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519—1530). “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa “Vaqoye” va “Tarix” degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494—1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Bobur Shayboniyxonni, avvalo, siyosiy arbob va davlat rahbari sifatida tan oladi. Ammo uning ijodiy merosi, xususan, she’riyatga bo‘lgan qiziqishi va turkiy tilda yozgan g‘azallari Boburning e’tiboridan chetda qolmaydi. “Boburnoma”da Shayboniyxonning shoirlik iste’dodi, badiiy ifoda vositalari, poetik uslubi haqida fikr yuritiladi. Bobur o‘z nigohida Shayboniyxonni ijodkor sifatida baholab, uning she’rlarini xalqona, ravon va samimiy deb ta’riflaydi.

Shayboniyxon she’riyatidagi asosiy xususiyatlardan biri uning turkiy tilga bo‘lgan e’tiboridir. U o‘z davridagi forsiy adabiy an’analardan foydalanib, turkiy tilda go‘zal she’rlar yozishga intilgan. Bu jarayon Bobur tomonidan ijobiy baholanadi, chunki turkiy tilni adabiy jarayonlarda rivojlantirish o‘sha davrda milliy uyg‘onishning muhim ko‘rinishlaridan biri edi. Bobur Shayboniyxonning ijodini qayd etar ekan, uni faqat hukmdor sifatida emas, balki shoir sifatida ham tarixiy manzara ichiga kiritadi.

Adabiy-estetik jihatdan qaraganda, Boburning Shayboniyxon haqidagi talqini bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u Shayboniyxonni turkiy she’riyatning vakili sifatida ko‘rsatadi. Ikkinchidan, uning poetik ifoda uslubini davrning badiiy mezonlari asosida baholaydi. Uchinchi jihat shundaki, Bobur Shayboniyxon ijodini nafaqat o‘z davri uchun, balki keyingi adabiy jarayonlar uchun ham qimmatli manba sifatida qayd etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Boburning Shayboniyxonga bergan bahosi xolis va ilmiy qarashlarga asoslangan. U shaxsiy adovat yoki siyosiy raqobatni chetga surib, ijodiy merosni badiiy-estetik mezonlar asosida tahlil qilgan. Bu esa Boburning nafaqat davlat arbobi, balki adabiyotshunos sifatidagi qirralarini ham ochib beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, "Boburnoma" o'zida ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi: birinchidan, u tarixiy voqealarni hujjatlashtiruvchi asar sifatida qimmatlidir; ikkinchidan, u davr adabiy muhitini, ijodkorlarning estetik qiyofasini ochib beruvchi adabiy-tanqidiy manba hisoblanadi. Shayboniyxon ijodining badiiy talqini esa "Boburnoma"ning bu jihatini yanada yorqin namoyon qiladi.

Xulosa va takliflar.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari nafaqat tarixiy-memuar, balki adabiy-estetik manba sifatida ham ulkan ahamiyatga ega. Unda Bobur o'z zamonasining siyosiy voqealari bilan bir qatorda, davr adabiy muhitini, ijodkorlarning shaxsiy va ijodiy qiyofasini haqqoniy yoritgan. Shayboniyxonning ijodi haqidagi talqin buning yorqin namunasi. Bobur Shayboniyxonni siyosiy arbob sifatida emas, balki ijodkor, shoir sifatida ham baholagan, uning turkiy tilga e'tibor qaratganini, xalqona va ravon ifoda uslubini alohida ta'kidlagan. Bu holat Boburning shaxsiy adabiyotshunoslik qarashlarini, ijodiy merosga xolisona yondashuvini yaqqol namoyon qiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, "Boburnoma" Shayboniyxonning she'riy ijodini yoritishda uch asosiy vazifani bajaradi: birinchidan, u Shayboniyxonning shaxsiy qiyofasini badiiy-estetik mezonlar asosida tasvirlaydi; ikkinchidan, uning ijodiy faoliyatini davr adabiy jarayonlari bilan bog'laydi; uchinchidan, turkiy tilning adabiy jarayonlardagi o'rni va mavqeini yuksaltirishga e'tibor qaratadi.

Olib borilgan tadqiqot davomida quyidagi ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- "Boburnoma"ni adabiy-tanqidiy manba sifatida o'rganishda unda berilgan adiblar haqidagi ma'lumotlarni zamonaviy adabiyotshunoslik nazariyalari bilan solishtirish zarur.

Shayboniyxonning ijodiy merosini faqat siyosiy faoliyat bilan bog'liq holda emas, balki mustaqil badiiy hodisa sifatida chuqur tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

- Adabiy jarayonni o'rganishda Boburning xolis yondashuvi metodologik asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

- Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida Shayboniyxonning ijodi kengroq tadqiq etilib, uning turkiy adabiyot tarixidagi o'rni qayta baholanishi kerak.

- "Boburnoma" asosida o'rta asrlar adabiy-tarixiy manbalarini kompleks tarzda o'rganish kelajak tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi.

Umuman olganda, “Boburnoma”dagi Shayboniyxon ijodining badiiy talqini Boburning adabiyotshunoslik qirralarini ochib berib, turkiy adabiyot tarixini yanada boyitadi. Bu esa o‘z navbatida, zamonaviy ilmiy izlanishlarda ham dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sulaymonov, I. I. (2025). “Boburnoma” da Shayboniyxonning g‘olibligi va ma’naviy tanazzuli tasviri. axborotnoma.uz. axborotnoma.uz+1.
2. Boysunova, Chinnixol. (2025). “Boburnoma” tarixiy-adabiy memuar asar. New Renaissance Conference, 2(2). ojs.renaissance.com.uz.
3. Utajanov, Nematilla. (2024). “Boburnoma” tarjimalarida ilmiy-adabiy aniqlikni yaratish muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Samarqand davlat universiteti. scienceweb.uz.
4. Rahimov, Z., & Mamurova, M. R. (2023). Tarixiy asarlarda Shayboniyxon obrazi talqini. Innovative Development in Educational Activities, 2(8), 102-110. openidea.uz.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Boburnoma>.

UMUMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA DARS JARAYONIDA IJTIMOIY SHAKLLARDAN FOYDALANISH.

Malikova Madina Abduraxmon qizi

CHDPU tayanch doktorantura (13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik
ta'limotlar tarixi) talabasi

+998991987771

madina1998malikova@gmail.com

So'zboshi: Ta'lim jarayoniga yildan yilga innovatsion g'oyalar va turli tuman metodlar kirib kelmoqda va bu ta'lim dargohlarida o'z o'rnida rivojlanishlarga sabab bo'lmoqda. Biroq metod va vositalardan tashqari yana darsni tashkil qilishda muhim jihat borki, uni ko'rib chiqish har bir pedagog uchun foydali va manfaatli bo'ladi. Bu maqolada dars jarayonini tashkil qilishning asosiy shakllari va uning qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi.

Kirish. Darsni tashkil qilishning ijtimoiy shakllari ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni turli ijtimoiy shakllarda tashkil qilish o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradi. Har bir shakl o'quvchilarning faolligini, mustaqilligini va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois pedagogika va psixologiya sohasidagi ko'plab olimlar, jumladan, J. Piaje, L. S. Vygotskiy, E. Tajibayeva, M.Jo'rayeva va boshqa tadqiqotchilar bu masalaga alohida e'tibor qaratganlar.

Asosiy ijtimoiy shakllar va ularning ahamiyati

1. Frontal (umumsinf) ishlash shakli

Bu shaklda o'qituvchi butun sinf bilan ishlaydi, o'quvchilarning e'tibori markazlashtiriladi. Bu usul yangi mavzuni tushuntirish, umumiy xulosa chiqarish va darsni boshqarishda samarali hisoblanadi. Piaje ta'lim jarayonida umumiy muhokama o'quvchilarning tafakkurini faollashtirishini ta'kidlagan. Bu usul, xususan, ma'ruza uslubidagi darslarga mo'ljallangandir.

2. Individual ishlash shakli

O'quvchi mustaqil ravishda topshiriq bajaradi. Bu uning shaxsiy mas'uliyatini oshiradi, o'z fikrini shakllantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida individual ishlashning bola qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini qayd etgan.

3. Juftlikda ishlash shakli

O‘quvchilar bir-birlari bilan hamkorlikda ishlaydilar. Bu shakl muloqot madaniyatini rivojlantirish, hamkorlikni o‘rganish va tengdoshlar orqali bilim olish imkonini beradi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, o‘quvchilar bir-biriga tushuntirish orqali o‘z bilimlarini yanada mustahkamlaydilar.

4. Guruhda ishlash shakli

O‘quvchilar kichik guruhlarda hamkorlik qiladilar. Guruhli ish ijtimoiy faollikni kuchaytiradi, muammolarni birgalikda hal qilish va liderlik sifatlarini shakllantiradi. Vygotskiyning fikricha, bilim ijtimoiy jarayonda shakllanadi va guruhli faoliyat bunga keng imkoniyat yaratadi.

5. Jamoa bo‘lib ishlash shakli

Bu shakl o‘quvchilarni yagona maqsad sari birlashtiradi, ularning mas‘uliyatini oshiradi, sinfdagi ijobiy muhitni shakllantiradi. Bu usul ko‘proq loyihaviy ishlar, munozaralar va bahs-munozaralarda samarali natija beradi.

Darhaqiqat, sinfdagi ijtimoiy shakllar ta‘lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda mustaqillik, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Olimlarning nazariyalari ham bu jarayonning ilmiy asosini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonini tashkil etishda ijtimoiy shakllarning turli ko‘rinishlarini qo‘llash ta‘lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Frontal, individual, juftlikda, guruhda va jamoa bo‘lib ishlash shakllari o‘quvchilarning faolligi, mustaqilligi, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir shaklning o‘ziga xos afzalliklari mavjud bo‘lib, ularni dars mazmuni va maqsadiga mos holda tanlab qo‘llash pedagogdan metodik yondashuv va yangicha fikrlashni talab qiladi. Pedagogika va psixologiya fanlari vakillari tomonidan ilgari surilgan nazariyalar esa bu shakllarning amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Shunday ekan, har bir pedagog dars jarayonida ijtimoiy shakllardan oqilona foydalanib, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga intilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Piaget J. The Principles of Genetic Epistemology. London: Routledge, 1972.
2. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
3. Slavin R. E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. Boston: Allyn & Bacon, 1995.
4. Mansurova O. U. “O‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘llari”. Toshkent: Fan nashriyoti, 2020.
5. Ташланова, Н. Д. Применение различных видов лекций для развития критического мышления студентов в высших учебных заведениях. Экономика и социум, 2019.

6. Tadjibayeva A.E. Actual problems of teaching foreign languages at university. Проблемы современной науки и образования, 2020.
7. Содиков, У. Х., & Полвонов, Х. М. Ўқитишнинг замонавий усуллари. International journal of discourse on innovation, integration and education, 2020.

MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATIDA DOSTONLARNI O'QITISHDA SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH

Xurramova Dilrabo Alisher qizi

ToshDO'TAU 3-bosqich tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim bosqichlarida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish, adabiyot darslarida xalq dostonlarini milliy qadriyatlarga bog'lab o'rgatish, yoshlarda komil insonga xos sifatlarni shakllantirish va ularni tarbiyalash, xalq dostonlarini o'rganishda samarali metodlardan foydalanish haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim bosqichlari, ta'lim oluvchilar, xalq og'zaki ijodi namunalari, xalq dostonlari, milliy qadriyatlar, komil inson, tarbiya, samarali metodlar

Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda va rivojlantirishda o'quvchi-yoshlarni har tomonlama kamol toptirish, ularda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda. Mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab insoniy xislat va fazilatlar majmui bo'lgan komil inson g'oyasi asosini xalqimizning azaliy ezgu orzulari tashkil qiladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da halol mehnat komillikningasosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Komil inson g'oyasi Islom falsafasidan oziqlanib, yanada chuqur ma'no-mazmun kasb etdi. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning komil inson tarbiyasi haqidagi fikrlari jamiyatni taraqqiy ettirishda inson omili qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. Professor S. Matchonov: "Avlod-ajdodlarimiz asrlar mobaynida intilib kelgan ma'naviy-axloqiy barkamollik, avvalo, insonning o'z-o'zini anglashi bo'lib, ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. O'z-o'zini anglash esa boshqalarni anglash, demakki, dunyoni anglash, ... uning sir-asrorlarini tushunishning ildizini kishilik jamiyatining ilk davridan, xalq og'zaki ijodi namunalari ijrosidan izlamoq kerak", - deydi.[1] Inson tafakkuri uning ruhiyati bilan chambarchas bog'liqlikda harakat qiladi. O'quvchi ruhiyati boy, dunyoqarashi keng, bilimi chuqur bo'lsa, fikrlari ham, mulohazalari ham asosli, mantiqli bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitish va tahlil qilishdan ko'zlanuvchi metodik maqsadlardan eng muhimi o'quvchini mustaqil fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritishga, ravon so'zlash, tafakkur shakllariga tayanib hayot hodisalari zamiridagi ma'nolarni anglab olishga o'rgatish, kulgi yoki pand-nasihatlarni ortiga yashiringan haqiqatlar mohiyatini tushunib, xulosa chiqarishga yo'llashdir. Bolaning fikrlashi va ilm olishga intilishi o'zaro uzviy

*Samarkand state institute of foreign languages Teacher of the department of English Philology
Kamalova Aziza*

Abstract. This article investigates how the fusion of narrator and artistic image functions as an aesthetic principle in the modern essay. Drawing on narrative theory, phenomenology, and stylistic analysis, the study demonstrates that this synthesis blurs the boundary between authorial self-expression and artistic representation. Through close reading of representative essays by Montaigne, Virginia Woolf, and Shukur Kholmirzaev, combined with insights from Bakhtinian dialogism and Genette's focalization theory, the research reveals how the narrator's subjectivity becomes an integral part of the artistic image itself. The findings highlight that such integration invites readers to experience the essay not merely as reportage or argument but as a lived aesthetic event.

Keywords: *narrator, artistic image, essay, aesthetic principle, narrative theory, Bakhtin, Genette*

The essay as a literary form thrives on the tension between personal reflection and crafted artistry. From Michel de Montaigne's *Essais* to contemporary literary nonfiction, the narrator is never a neutral reporter but a shaping consciousness. Modern critics such as Georg Lukács (1971) and Theodor Adorno (1984) have emphasized the essay's "performative subjectivity," where the author's presence is inseparable from the work's artistic texture. This study explores that phenomenon as a distinct aesthetic principle: the synthesis of narrator and artistic image. Rather than treating the narrator as merely a guiding voice, the analysis considers how the narrator becomes an aesthetic construct, merging with characters, symbols, and imagery to form a unified artistic entity.

Scholars have long grappled with the paradoxical nature of the essay. Georg Lukács (1971) famously described the form as the "meeting point of the soul and the world," emphasizing the way personal subjectivity confronts objective reality. Theodor Adorno (1984) went further, characterizing the essay as "heretical" because it rejects rigid systematic thinking and instead "thinks in images." Both theorists highlight a crucial feature: the essay's power resides not merely in the ideas it conveys but in the manner of their presentation, the voice that animates them, and the imaginative texture in which they are embedded. The narrator is not a transparent window but an active shaper of meaning, and this shaping occurs through the creation of artistic images that often mirror, extend, or even become indistinguishable from the narrator's own consciousness.

In Central Asian literature, Shukur Kholmirzaev's essay *U Kishim – Ustoz, Men – Shogird* ("That Person Is a Mentor, and I Am a Disciple") offers a striking example of this principle. Here, the narrator's reverence for his mentor is inseparable from the symbolic portrayal of cultural transmission. Understanding this synthesis enriches our appreciation not only of Kholmirzaev but of the essay as a

His essay *U Kishim – Ustoz, Men – Shogird* ("That Person Is a Mentor, and I Am a Disciple") is not merely a recollection of a teacher-student relationship; it is a work in which the narrator's deep respect and gratitude shape the very portrayal of the mentor. The figure of the mentor transcends individual biography to become a cultural archetype representing the transmission of wisdom and moral values in Uzbek society. Through affectionate detail and lyrical prose, Kholmirzaev turns personal memory

into collective cultural heritage. The narrator's voice, imbued with reverence, merges seamlessly with the artistic image of the mentor, demonstrating the same synthesis found in Montaigne and Woolf, yet in a distinctly Uzbek idiom.

Selected essays including Montaigne's "Of Experience," Virginia Woolf's "The Death of the Moth," and Shukur Kholmiraev's "That Person Is a Mentor, and I Am a Disciple" are examined for narrative voice, figurative language, and structural patterns.

Gérard Genette's concepts of focalization and voice help identify how the narrator's perspective fuses with depicted images.

Bakhtin's notion of dialogism and Wolfgang Iser's reader-response theory are used to interpret how this synthesis affects the reader's aesthetic experience.

This triangulation ensures that the argument rests on both formal literary evidence and established critical theory.

Analysis reveals several recurring mechanisms through which narrator and artistic image converge: Montaigne's essays present the author's own consciousness as the primary "character," turning introspection into an artistic tableau.

In Woolf's "The Death of the Moth," the moth's struggle becomes a mirror of the narrator's contemplation of life and death; the observed object is inseparable from the observing self.

Kholmiraev integrates personal reverence for a mentor into a narrative where the mentor-figure is simultaneously real and emblematic of cultural transmission. Here the narrator's devotion shapes the mentor into an artistic archetype rather than a mere biographical figure.

Across these cases, the narrator's inner life permeates imagery and structure, transforming subjective reflection into an autonomous artistic whole.

The synthesis identified can be understood as an aesthetic principle for several reasons:

Following Mikhail Bakhtin's concept of dialogism, the essay becomes a "polyphonic" space where the author's voice interacts with the world's voices, collapsing the divide between subject and object. As Wolfgang Iser argues, the reader co-creates meaning. When narrator and image are fused, readers experience a dynamic "double consciousness," perceiving both a personal confession and an aesthetic artifact.

In Kholmiraev's Uzbek context, this fusion also functions as cultural memory work, where the narrator's reverence turns lived experience into a collective artistic symbol.

This analysis suggests that the essay's enduring power lies in precisely this merger of self and art, which distinguishes it from other nonfiction forms such as reportage or memoir.

The essay's vitality as a literary genre stems from its ability to present thought as art. The synthesis of narrator and artistic image elevates personal reflection to an aesthetic principle, allowing lived experience to become a shared artistic reality. Recognizing this fusion enriches our understanding of both classical and contemporary essays and invites further cross-cultural studies especially of writers like Shukur Kholmiraev, whose works exemplify how the narrator's very presence is inseparable from the beauty of the artistic image.

LIST OF USED LITERATURE

1. Adorno T. *The Essay as Form*. New Directions. 1984.
2. Bakhtin M. *The Dialogic Imagination*. University of Texas Press. 1981.
3. Genette G. *Narrative Discourse*. Cornell University Press. 1980.
4. Iser W. *The Act of Reading*. Johns Hopkins University Press. 1978.

5. Lukács G. Soul and Form. MIT Press. 1971.

FRANSUZ MAQOLLARIDA PRAGMATIK AKTLARNING IFODALANISHI

Norboyeva Nuriniso Usan qizi

nnuriniso2001@gmail.com +998941982600

Anotatsiya. Ushbu maqolada fransuz maqollarining pragmatik jihatdan o‘rganilishi, xususan maslahat aktlari misolida ularning nutqiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda J. L. Ostin, J. R. Serl, H. Grays kabi olimlarning nutqiy aktlar nazariyasi asos qilib olingan. Maqollar orqali jamiyatning madaniy, axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlari qanday ifodalanishi ko‘rsatib berilgan. Misollar orqali fransuz tilidagi maqollarda maslahat aktlarining nutqiy va ma’no xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *fransuz maqollari, pragmatika, nutqiy akt, maslahat, tanbeh, lingvopragmatika*

Maqollar har bir xalqning dunyoqarashi, tafakkuri va madaniy qadriyatlarini ixcham shaklda ifodalovchi beqiyos xazina hisoblanadi[1]. Ular nafaqat estetik va badiiy vazifani bajaradi, balki ijtimoiy hayotda muhim tarbiyaviy, kommunikativ va pragmatik funksiyalarni ham bajaradi. Har bir tilda maqollar o‘ziga xos kommunikativ vaziyatlarda ishlatiladi va suhbatdoshlar orasida muayyan ta’sir uyg‘otadi.

Pragmatika nuqtai nazaridan maqollar “*nutqiy akt*” sifatida qaraladi. Ular orqali esa maslahat berish, ogohlantirish, tanbeh qilish, tasalli berish, ishonch uyg‘otish kabi vazifalar bajariladi. Shuning uchun maqollarni pragmatik jihatdan tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy va psixologik ahamiyatga ham ega.

Mazkur maqolada fransuz maqollarida “*maslahat aktining ifodalanishi*” atroflicha tahlil qilinadi, ularning lingvopragmatik xususiyatlari misollar asosida yoritiladi. Shu bilan birga, ayrim o‘rinlarda o‘zbek maqollari bilan qiyosiy jihatlar ham ko‘rib chiqiladi.

Pragmatika — tilshunoslikning til birliklarining ishlatilish sharoitlari, so‘zlovchi va tinglovchi munosabatlari, maqsad va kommunikativ niyatlarni o‘rganuvchi bo‘limidir [8]. Pragmatika shunday sohaki, biror gapning mazmuni nafaqat uning grammatik va semantik tuzilishiga, balki kontekst, vaziyat va suhbatdoshlarning ijtimoiy-madaniy bilimlariga ham bog‘liq ekanligini o‘rganadi[6].

Ingliz faylasufi J. L. Ostin o‘zining “*How to Do Things with Words*” asarida gap faqat voqelikni tasvirlamaydi, balki amaliy harakatni bajaradi, degan g‘oyani ilgari suradi [3]. Tilshunos J. R. Serl esa bu nazariyani rivojlantirib, nutqiy aktlarning quyidagi turlarini ajratadi [7]:

- “*Direktiv aktlar*”: suhbatdoshni biror ish qilishga undaydi (maslahat, buyruq, taklif).
 - “*Ekspressiv aktlar*”: so‘zlovchining hissiyotini bildiradi (minnatdorchilik, uzr, tanbeh).
 - “*Deklarativ aktlar*”: so‘z orqali yangi holatni yaratadi (qaror, hukm).
- Shunday qilib, maqollar ko‘pincha “*direktiv*”(maslahat) va “*ekspressiv*” (tanbeh) *aktlar* vazifasini bajaradi.

Tilshunos-olim H. P. Grays nutqiy jarayonda hamkorlik prinsipini ilgari surib, quyida *sifat, miqdor, munosabat* va *uslub* nomli to‘rt qoida nazariyasini ilgari suradi [4]. Maqollar aynan shu qoidalarni buzish yoki ramziy shaklda ifodalash orqali kuchli ta’sir uyg‘otadi.

Fransuz maqollari o‘zining qisqaligi, obrazlilik, metaforikligi bilan ajralib turadi [2]. Ular ko‘pincha hayotiy tajriba asosida shakllangan bo‘lib, kundalik muloqotda faol ishlatiladi [5].

“*Petit à petit, l’oiseau fait son nid.*” — “*Qush inini asta-sekinlik bilan quradi.*” Bu maqol orqali sabr-toqatli bo‘lishga, mehnatga bo‘lgan undov yaqqol anglashinib turadi. “*On ne fait pas d’omelette sans casser des œufs.*” — “*Tuxumni sindirmay omlet qilinmaydi.*” Ushbu maqol esa maqsad yo‘lida qurbonlik zarur ekanligini, biror natijaga erishish uchun harakat qilish kerakligini ifodalaydi.

“*L’habit ne fait pas le moine.*” — “*Libos odamni rohib qilmaydi.*” Bu birlik insonning qadri tashqi ko‘rinishda emasligi, tashqi holat yoxud ko‘rinishga qarab xulosa chiqarib qo‘ymaslik kerak degan g‘oyani ilgari suradi.

Fransuz maqollarida eng ko‘p uchraydigan akt bu maslahat hisoblanadi. Bu akt suhbatdoshni ma’lum qarorga undash, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi. Fransuz maqollarida maslahat ko‘pincha allegoriya va ramziy obrazlar orqali ifodalanadi.

“*Il ne faut pas vendre la peau de l’ours avant de l’avoir tué.*” — “*Ayiqni o‘ldirmasdan terisini sotma.*” Natijani oldindan bo‘rttirib aytmaslik, shoshilmaslik kerak degan maslahat ma’nosi anglashiladi.

“*À quelque chose malheur est bon.*” — “*Baxtsizlik ham bir narsaga yaxshi.*” Ya’ni har bir sinovning foydali tomoni bor ya’ni u kishi uchun xayrli bo‘lishi mumkinligi qiyin vaziyatlarda sarosimaga tushmaslik kerakligi anglatiladi.

“*Il vaut mieux tard que jamais.*” — “*Hech qachon qilmaslikdan ko‘ra kech qilish yaxshi.*” Bu maqolda kech bo‘lsada ham biror ishni bajarish hech qachon bajarmaslikdan yaxshiroqligi, shu sababdan harakat qilish zarurligi tavsiya etilgan.

“*Quand on veut, on peut.*” — “Istasa, qo‘lidan keladi.” Inson nimanidir chin dildan xohlasa uni bajara olishi, shunday ekan istashdan va harakat qilishdan to‘xtamaslik kerak degan ma‘noni bildiradi.

“*Les petits ruisseaux font les grandes rivières.*” — “Kichik soylar katta daryolarni hosil qiladi.” Mazmuni :kichik mehnatlar ham katta natijaga olib keladi. Shu boisdan harakatni to‘xtatmaslik hamda sabr bilan biror maqsadga kirishish kerak .

“*Mieux vaut être seul que mal accompagné.*” — “Yomon hamrohdan ko‘ra yolg‘iz bo‘lgan yaxshi.” Do‘st tanlashda ehtiyotkorlik joizligi maslahat beriladi.

“*Un tiens vaut mieux que deux tu l’auras.*” — “Qo‘ldagi bitta, kelajakdagi ikkitasidan yaxshiroq.” Bu maqolada esa mavjud narsani qadrlash kerak degan maslahat anglashiladi.

“*Il ne faut pas courir deux lièvres à la fois.*” — “Bir vaqtning o‘zida ikkita quyovni quvma.” Maslahat: bir ishni oxirigacha bajarish zarurligi, ikkita yumushni bir vaqtda bajaraman deb ikkalasini ham barbod qilishi mumkinligi.

“*À bon entendeur, salut !*” — “Aqlli kishiga bir ishora kifoya.” Maslahat: ogohlantirishni tez tushunish kerak.

“*Tout vient à point à qui sait attendre.*” — “Kutishni bilgan odamga hammasi vaqtida keladi.” Sabr-toqatning fazilati orqali saodatga erishish haqida maslahatdir.

“*Qui ne risque rien n’a rien.*” — “Tavakkal qilmagan hech narsaga ega bo‘lmaydi.” Tavakkalning muhimligi, ba‘zan inson o‘ylanib vaqt o‘tmasdan birdan shu ishga kirishgani yaxshiroq .

“*À cœur vaillant rien d’impossible.*” — “Jasur yurak uchun hech narsa imkonsiz emas.” Qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik kerakligi haqidagi maslahat.

“*Mieux vaut prévenir que guérir.*” — “Davolashdan ko‘ra oldini olish yaxshi.” Sog‘liq va ehtiyotkorlik haqida maslahat.

Fransuz maqollari xalq tafakkurining noyob mahsuli sifatida maslahat aktini samarali ifodalaydi. Ular suhbat jarayonida suhbatdoshga kuchli ta‘sir o‘tkazib, uni muayyan qarorga undaydi yoki noto‘g‘ri xatti-harakatdan qaytaradi [9]. Pragmatika nuqtai nazaridan qaralganda, fransuz maqollari nutqiy aktlarning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Maslahat aktlari orqali insonni ehtiyotkorlikka, sabr-toqatga va to‘g‘ri qarorga undasa, bundan tashqari ular yordamida ogohlantirish, tarbiyaviy ta‘sir va ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlash vazifasi bajariladi. Shu bois, fransuz maqollarini pragmatik jihatdan o‘rganish ularning lingvokulturologik va kommunikativ mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedova, S. (2010). *O'zbek maqollarining lingvopragmatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.
2. Arnaud, P. J. L. (1991). *Les proverbes français: Études linguistiques et culturelles*. Paris: Larousse.
3. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Oxford University Press.
4. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In *Syntax and Semantics* (Vol. 3, pp. 41–58). New York: Academic Press.
5. Hamroyev, M. (2020). *O'zbek va fransuz tilida paremiologik birliklarning lingvokulturologik tahlili*. Toshkent.
6. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Xudoyberdiyeva, N. (2018). *Pragmatika va matn lingvistikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
9. Yoqubov, H. (2015). *Qiyosiy tilshunoslik asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.

“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONI MATNIDA UCHRAYDIGAN MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK AHAMIYATI

Noraliyeva Dildora Abduvalikovna,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Maqollar xalq donishmandligi mahsuli bo‘lib, ijtimoiy faoliyatdagi uzoq yillik tajribasi natijasida paydo bo‘ladigan, gap holda shakllanadigan xalq og‘zaki ijodining alohida janridir. Boshqa barqaror birikmalarda bo‘lgani kabi, maqollarni ham shaklan “buzish” uning nutqdagi vazifalari o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Masalan, *chumchuq* biologik nuqtayi nazardan eng kichik qush emas. Zamonaviy biologiya fanida amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko‘ra “kolibrilar qushlar orasida eng kichigi, ba’zilarining kattaligi qovog‘aridek keladi”¹. Ammo o‘zbekcha maqollarda aynan *chumchuq* so‘zi qushlar va hayvonlar orasidagi eng kichigi sifatida qo‘llanadi: “Chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin”. Tilshunos olim A.Dandesning fikriga ko‘ra, maqollar quyidagi xususiyatlarga ega: “1) gap tarzida shakllanadi; b) konnotativ ma‘no anglatadi; d) muallifi aniq bo‘lmaydi; e) muayyan muammoning yechimi bo‘lib xizmat qiladi; f) xalqning ijtimoiy tajribasi mahsuli; g) tarbiyaviylik va ibratlilik xususiyatiga ega; h) qisqalik, ixchamlik va obrazlilik jihatlari bilan ajralib turadi”idagi xususiyatlarga ega”². Maqollar bir shaxs tomonidan emas, balki butun jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilinadi. Maqolning ma‘nosi har doim uning tarkibidagi so‘zlarning leksik xususiyatlariga to‘liq bog‘liq bo‘lmaydi, bu esa maqollardagi obrazlilik va tasviriylikning kuchli ta‘siri bilan tushuntiriladi. Umuman, maqollar orqali xalq madaniyati, uning turmush tarzi, ma‘naviy tafakkur tarzi kabilarni uqib olish mumkin. V.I.Dal ta‘kidlaganidek: “Maqollarni o‘rganish orqali xalq tomon borish mumkin ekanligini inkor etib bo‘lmaydi”³.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining ko‘plab o‘rinlarida xalq maqollariga murojaat qilingan. Maqollarning dostonlarda qo‘llanishi nutq vaziyatini aniqlashtirish, qahramonlar intensiyasini yetkazish, baxshi va tinglovchilar orasidagi munosabatlarni tartiblashda muhim o‘rin tutadi. Maqollar asrlar davomida xalq donoligidan o‘sib chiqqan muhim xazina sifatida, og‘zaki ravishda avlodlardan avlodlarga o‘tib, takomillashib kelgan. Ular folklorning boshqa asosiy janrlari qatori har bir xalq va millatning eng muhim madaniy merosi hisoblanadi. Buning sababi, maqollarda

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kolibrilar> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 27.07.2023.

² Dundes A. Folklore Matters, – Tennessee: University of Tennessee Press, 1993. – 172 p.

³ Даль В.И. О поверьях, суевериях и предрассудках русского народа. – Москва: Аргументы недели, 2017. – 208 с.

xalqning ijtimoiy hayotining barcha jabhalarini aks ettiruvchi xususiyatlar mujassamdir. Maqollar turli fan sohalarida har xil aspektlarda o‘rganildi. Zamonaviy tilshunoslikda maqollar antropsentrik paradigma asosida o‘rganilmoqda. Hozirgi kunda maqollar tadqiqida ularning olam lisoniy manzarsini ifodalashi masalasiga e‘tibor qaratilmoqda⁴. Maqollarni lingvokulturologik tahlil qilish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardandir. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini lingvokulturologik tahlil qilish bir necha jihatlariga ko‘ra murakkabik hosil qiladi. Bu, ayniqsa, ham nasriy, ham she‘riy qismlardan iborat bo‘lgan doston matnlarida yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Chunki nazmiy usulda yozilgan qismlarda maqollar shaklan o‘zgarishlarga uchrashi tabiiy hol. Garchi maqollar ham barqaror birikmalarning bir turi bo‘lsa ham, ularning doston matnida shakliy o‘zgarishlarga uchrashi mazmunning anglanishi bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltirmaydi. Negaki til egalari xotirasida maqollar shunday o‘rinlashadiki, ularning tarkibidagi so‘zlar o‘rnining almashishi adresantning ma‘lumotni qabul qilishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmaydi. Olamning lisoniy tasvirida maqollarni hosil qiluvchi leksik birliklar o‘zaro bir-birini taqozo qiluvchilar sifatida saqlanadi, shu sababli she‘riy matnlarda tartibning o‘zgarishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunday holat maqollarning lingvokulturologik ahamiyatini oshiradi. Jumladan, quyidagi she‘riy parchada maqolni hosil qiluvchi a‘zolar tartibining o‘zgarishi mazmunning ko‘lamdorligi va ta‘sirchanlikning oshishiga hissa qo‘shgan:

Eshit taqsir, bu sinchining dodini,

Musofirlar kimga aytar dardini?

Katta xalqlik qaytmaydi aytganidan,

*Olib bering holvachining otini*⁵.

Zamonaviy nutqda faol qo‘llanadigan “Arslon izidan qaytmaydi, yigit so‘zidan”⁶ maqoli mavjud. Yuqoridagi misralarda keltirilgan “Katta xalqlik qaytmaydi aytganidan” maqoli ham aynan shu mazmunda qo‘llangan. Mardlik o‘zbek xalqiga xos eng muhim qadriyatlardandir. Xalqimiz azaldan mardligi va o‘z so‘ziga sadoqati bilan mashhur bo‘lgan. Ular qiyin sinovlarda ham o‘z prinsiplaridan voz kechmagan, har doim jasorat va qat‘iyat ko‘rsatgan. So‘z berganida, uni oxirigacha bajarish

⁴ Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 56 б.; Шамсиева М. Ўзбек ва рус халқ мақолларидаги “бахт” ва “бахтсизлик” концептларининг киёсий таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. 2019. №3. – Б.115.; Жўраева Б.М. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 24 б.; Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. (DSc) дис. автореф. – Самарқанд. 2019. – 74 б.

⁵ Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi: xalq o‘zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. – 208 b.

⁶ O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq NMAK, 2005. – 512 b.

xalqimizning eng muhim xislatlaridan biridir. Bu xususiyat ularning o‘tmishdagi janglarda, og‘ir sinovlarda va kundalik hayotda yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalqimiz vakillari o‘z va‘dasiga sodiq bo‘lib, hech qanday sharoitda so‘zidan qaytmaydi. Bu xalqning olijanoblighi va sharafini ko‘rsatadi. Mardlik va so‘zga sadoqat o‘zbek xalqining milliy g‘ururidir. Ravshanbek, garchi Shohdorxonning dini, madaniy va ma‘naviy qarashlari, jumladan e‘tiqodi boshqa ekanligini bilgani uchun ham aytganidan qaytmaslik “katta xalqlik” kishilarga ham xosligini unga uqtirishga harakat qiladi. Bunda “katta xalqlik” birikmasi podshoning buyukligiga ishora qiladi. Doston voqealarida Ravshanbek Shohdorxonning otlari tulpor emasligi haqidagi to‘g‘ri fikrni bayon qilganligi uchun ko‘zi ko‘r qilingandan keyin ham uni ulug‘lab “katta xalqlik” deb murojaat qiladi. Xalqimizga xos xushmuomalilik, o‘zidan kattani yoshi va martabasi katta bo‘lgan insonni hurmat qilish bilan bog‘liq ma‘no doston voqealari davomida ma‘lum bo‘ladigan qahramonlar va ularning madaniyati bilan izohlanadi. Zero, Ravshanbek o‘zining yumshoqko‘ngilliligi, soddaligi, vatanparvarligi, topqirligi va zukkoligi bilan ajralib turadi. Aslida, o‘zbek xalqi o‘zining samimiy xushmuomaliligi bilan dunyoga tanilgan. Har bir mehmonni hurmat bilan kutib olish, ularga dasturxon yoyish o‘zbeklarning qon-qonida mujassam. Xushmuomalilik ularning kundalik hayotida, suhbatlarida va o‘zaro munosabatlarida yaqqol ko‘rinadi. O‘zbeklar doimo boshqalarga mehr-oqibat va iliq munosabat bilan yondashadi. Bu xislat ularning milliy madaniyati va tarbiyasining muhim qismidir. O‘zbek xalqining xushmuomaliligi o‘ziga xos mehmondo‘stlik va saxovat bilan chambarchas bog‘liq. Bu xususiyat ularni boshqa xalqlardan ajratib turadi. Anglashiladiki, dostonda qo‘llangan maqolning bu pragmatik ma‘nosi kontekst orqali ma‘lum bo‘ladi. Dostonda qo‘llangan maqollarning pragmatik vazifalari kontekst bilan bevosita bog‘liq bo‘lishini boshqa maqollar misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi: xalq o‘zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2019. – 208 b. Dundes A. Folklore Matters, – Tennessee: University of Tennessee Press, 1993. – 172 p.
2. Даль В.И. О поверьях, суевериях и предрассудках русского народа. – Москва: Аргументы недели, 2017. – 208 с.
3. Жўраева Б.М. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 24 б.;
4. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. (DSc) дис. автореф. – Самарқанд, 2019. – 74 б.

5. Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 56 б.
6. Шамсиева М. Ўзбек ва рус халқ мақолларидаги “бахт” ва “бахтсизлик” концептларининг қиёсий таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. 2019. №3. – Б.115.
7. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq NMAK, 2005. – 512 b.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kolibrilar> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 27.07.2023.

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORATINI TAHLIL QILISHDAGI XUSUSIYATLAR

Toshkent Davlat iqtisodiyot universitet Mustaqil izlanuvchisi
Tashpulatov Sherzod Abduxamidovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida komplaens nazoratini tahlil qilish jarayonidagi asosiy xususiyatlar yoritiladi. Xususan, bank faoliyatida risklarni baholash, shubhali operatsiyalarni aniqlash va nazorat samaradorligini oshirish kabi jarayonlar tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: Komplaens nazorat, tahlil jarayoni, risklarni boshqarish, ichki nazorat, shubhali operatsiyalar, bank tizimi, samaradorlik, xalqaro standartlar.

KIRISH

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish jarayonida komplaens nazorati muhim boshqaruv vositasi sifatida shakllanib bormoqda. Komplaens tizimi orqali bank faoliyatining qonunchilikka muvofiqligi, ichki me‘yoriy hujjatlarga rioya etilishi va xalqaro moliyaviy standartlarga moslashuvi ta‘minlanadi. Komplaens nazoratini samarali tashkil qilishning eng muhim bosqichi bu – tahlil jarayonidir. Tahlil yordamida bankdagi ichki jarayonlar, risklar, mijozlar operatsiyalari hamda xodimlarning faoliyati chuqur o‘rganiladi. Bu esa nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olish, balki bankning obro‘sini saqlash, mijozlar ishonchini mustahkamlash va xalqaro maydonda barqaror faoliyat yuritish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi globallashuv davrida xalqaro moliyaviy operatsiyalar hajmining ortishi, raqamli texnologiyalar joriy etilishi, shuningdek, korrupsiya va “pul yuvish” xavflarining kuchayishi fonida komplaens nazoratini tahlil qilish jarayonida zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash O‘zbekiston banklari uchun strategik ahamiyatga ega.

Risklarni baholash va boshqarish xususiyatlari. Komplaens nazoratini tahlil qilishda eng avvalo risklarni aniqlash va baholash muhimdir. Tijorat banklari mijozlar faoliyati, ularning moliyaviy manbalari va operatsiyalarini doimiy ravishda monitoring qilishi kerak. Risklarni tahlil qilishda:

- mijozning faoliyat sohasi va daromad manbalarini baholash;
- shubhali tranzaksiyalarni aniqlash;
- xalqaro sanksiyalar ro‘yxati bilan solishtirish;

-yuqori xavfli mijozlar uchun alohida nazorat mexanizmlarini joriy etish kabi jarayonlar amalga oshiriladi.

Amaldagi tajriba shuni ko'rsatadiki, risklarni tahlil qilish mexanizmi komplaens nazoratining samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.



Shubhali operatsiyalarni aniqlash va monitoring. Komplaens nazoratining yana bir muhim xususiyati – bu shubhali moliyaviy operatsiyalarni aniqlashdir. Tahlil jarayonida quyidagilar e'tiborga olinadi:

- operatsiyalar hajmi va chastotasining mijoz daromadlariga mutanosibliigi;
- naqd pul aylanishining ortishi;
- turli mamlakatlarga pul o'tkazmalarining ko'pligi;
- hujjatlar orqali asoslanmagan tranzaksiyalar.

Bank tizimida shubhali operatsiyalarni o'z vaqtida aniqlash nafaqat qonunchilikni buzilishining oldini oladi, balki xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda ishonchni mustahkamlaydi.

Nazorat samaradorligini baholash. Komplaens nazoratini tahlil qilishning uchinchi xususiyati – samaradorlikni baholashdir. Bu jarayonda:

1. Komplaens bo'limi faoliyati va uning bank boshqaruvidagi o'rni;
2. Xodimlarning malakasi va o'qitilish darajasi;
3. Texnologik infratuzilma (maxsus dasturlar, monitoring tizimlari);
4. Xalqaro standartlarga moslik darajasi tahlil qilinadi.

Ayrim banklarda bu boradagi muammolar shundan iboratki, komplaens bo‘limi faqat formal nazoratni amalga oshiradi, samaradorlik esa yetarli darajada bo‘lmaydi. Shu bois bank tizimida komplaens tahlilini yanada chuqurlashtirish zarur.

O‘zbekiston tijorat banklarida komplaens nazoratini tahlil qilish jarayoni bank tizimining barqaror faoliyatini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Tahlil jarayonidagi uchta asosiy xususiyat – risklarni baholash, shubhali operatsiyalarni aniqlash va nazorat samaradorligini baholash – komplaens tizimining samarali ishlashiga zamin yaratadi. Kelgusida bu jarayonlarni takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Komplaens xodimlari uchun xalqaro tajribaga asoslangan malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish.
2. Zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etib, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini yaratish.
3. Risklarni tahlil qilish metodologiyasini xalqaro amaliyot asosida muntazam ravishda yangilab borish.
4. Nazorat samaradorligini oshirish uchun bank rahbariyati va komplaens bo‘limlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, komplaens nazoratini chuqur tahlil qilish O‘zbekiston tijorat banklarining xalqaro moliya tizimidagi o‘rnini mustahkamlash va ularning ishonchliligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Pul yuvishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qaror va ko‘rsatmalari.
4. FATF va Bazel qo‘mitasi tavsiyalari.
5. Xolboev A. “Bank tizimida komplaens nazorati va uning tahlili” – Toshkent, 2023.
6. Internet manbalari: www.lex.uz, www.cbu.uz.

NODIRABEGIM QURDIRGAN MADRASALAR: ME'MORIY MEROS VA MA'NAVIY BOYLIK

Temirova Shahzoda Nosir qizi

Temirova.shahzoda.lider@gmail.com

Toshkent davlat transport universiteti Qurilish muhandisligi fakulteti talabasi

Anatatsiya:

Ushbu maqolada xix asr o'zbek tarixida muhim o'rin tutgan Nodirabegimning me'moriy merosi, xususan, u tomonidan qurdirilgan madrasalar tahlil qilinadi. Shoiraning ma'rifatparvarlik faoliyati, ayol rahbar sifatidagi tashabbuslari va bu inshootlarning estetik hamda ma'naviy ahamiyati yoritiladi. Mohlaroyim va chalpak madrasalari misolida Nodirabegimning ta'limga, ayollar huquqlariga va san'atga bo'lgan e'tibori ko'rsatiladi. Maqolada madrasalarning me'moriy xususiyatlari, tarixiy kontekstdagi roli, ustalarning ijodiy yondashuvi hamda bugungi kundagi restavratsiya va saqlash holati tahlil qilinadi. Shuningdek, ayol liderlikning tarixiy namunasi o'rganish orqali o'zbek madaniyatida ayollar faolligining ildizlari ochib beriladi.

Kalit So'zlar: Nodirabegim, Mohlaroyim madrasasi, Chalpak madrasasi, ayol rahbar, o'zbek me'morchiligi, XIX asr Buxoro, ma'rifatparvarlik, diniy ta'lim, ayollar ta'limi, tarixiy obidalar, koshinkor bezaklar, peshtoq, gumbaz, arabiy yozuvlar, me'moriy meros, restavratsiya, madaniy merosni saqlash, ayol liderlik, o'zbek ayolining roli, san'at va ilm-fan uyg'unligi, tarixiy kontekst, turizm, muzeylashtirish.

O'zbek tarixida ayol siymosi orqali davlat boshqaruvi, madaniyat va ma'rifat taraqqiyoti birgalikda namoyon bo'lgan kamdan-kam holatlardan biri — bu Nodirabegim faoliyatidir. Shoira, davlat arbobi va me'moriy homiy sifatida u XIX asrda Buxoro va uning atrofida bir qator madrasalar, rastalar va karvonsaroylar qurdirgan. Bu inshootlar o'z davrida ilm-fan, adabiyot va diniy ta'lim markazlari bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, Mohlaroyim madrasasi va Chalpak madrasasi uning ma'rifatparvarlik ruhini, estetik didini va xalqiga bo'lgan sadoqatini aks ettiradi. Ushbu maqolada Nodirabegim qurdirgan madrasalarning me'moriy xususiyatlari, tarixiy ahamiyati va bugungi kundagi roli tahlil qilinadi.

Nodirabegimning me'moriy merosi XIX asr o'zbek madaniy hayotining muhim qismidir. U tomonidan qurdirilgan madrasalar nafaqat diniy ta'lim maskani, balki ilm-fan, adabiyot va san'at markazlari sifatida xizmat qilgan. Bu inshootlar orqali Nodirabegim o'z davrida ayol rahbar sifatida ma'rifatparvarlik g'oyalari amalda ro'yobga chiqargan.

Mohlaroyim madrasasi Nodirabegimning eng muhim tashabbuslaridan biri bo‘lib, aynan ayollar ta‘limi uchun mo‘ljallangan edi. Bu madrasa ikki qavatli hujralar, markaziy hovli va peshtoqdagi koshinkor bezaklar bilan ajralib turadi. Me‘moriy jihatdan nafislik va funkcionallik uyg‘unlashgan bo‘lib, ayollarni diniy va dunyoviy bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qilgan. Bu inshoot Nodirabegimning ayollar huquqlari va ta‘limga bo‘lgan e‘tiborini yaqqol namoyon etadi.

Chalpak madrasasi esa ilm-fan va san‘at uyg‘unligini ifodalovchi yana bir muhim obidadir. Bu madrasa nafis bezaklar, arabiy yozuvlar bilan bezatilgan devorlar, ustunli ayvonlar va gumbazli tuzilma orqali o‘z davrining estetik didini aks ettiradi. Chalpak madrasasi Nodirabegimning ijodkorlik va ma‘rifatparvarlik ruhini me‘moriy shaklda ifodalagan inshootlardan biridir.

Ushbu madrasalar o‘zbek me‘morchiligining klassik uslubida qurilgan bo‘lib, Buxoro, Samarqand va Toshkent ustalarining tajribasi mujassam. Koshinkor bezaklar, peshtoqdagi arabiy yozuvlar, gumbazlar va ayvonlar bu inshootlarga nafaqat diniy, balki estetik ahamiyat ham beradi. Bu madrasalar XIX asr Buxoro madaniy hayotining markaziy qismiga aylangan.

Bugungi kunda Nodirabegim qurdirgan madrasalar restavratsiya qilinib, muzey, madaniy markaz yoki ta‘lim muassasasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Ular turizm, ilmiy tadqiqot va madaniy merosni saqlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu inshootlar orqali Nodirabegim siymosi xalq xotirasida saqlanmoqda va o‘zbek ayolining zakovati, tashabbuskorligi hamda estetik didi tarix sahnasida porlamoqda.

Madrasalarning ijtimoiy funksiyasi ham alohida e‘tiborga loyiq. Nodirabegim tomonidan qurdirilgan bu inshootlar faqat ta‘lim maskani bo‘lib qolmagan, balki jamiyatning ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Madrasalarda faqirlarga yordam ko‘rsatilgan, olimlar va shoirlar jamlangan, ilmiy suhbatlar, adabiy munozaralar o‘tkazilgan. Bu jihatlar ayol rahbarning xalq bilan muloqotga, ijtimoiy adolatga va ma‘rifatga bo‘lgan sadoqatini ko‘rsatadi.

Shuningdek, madrasalardagi bezak san‘ati Nodirabegimning estetik tafakkurini ochib beradi. Peshtoqdagi koshinkor naqshlar, gumbazlardagi simmetrik kompozitsiyalar, arabiy yozuvlar bilan bezatilgan devorlar — bularning barchasi san‘at va ruhiy go‘zallikni uyg‘unlashtirgan. Bu bezaklar nafaqat me‘moriy jihatdan, balki ma‘naviy ramz sifatida ham qadrlanadi. Ayniqsa, Xumo qushi tasvirlari, rang tanlovi va naqshlar orqali Nodirabegim o‘z dunyoqarashini me‘moriy shaklda ifodalagan.

Tarixiy manbalar ham bu madrasalarning ahamiyatini tasdiqlaydi. “Muntaxabut-tavorix”, “Tuhvatut-tavorix” kabi asarlarda Nodirabegimning qurilish ishlari, saroydagi ayollar davrasi va ilm-fanga bo‘lgan e‘tibori haqida muhim ma‘lumotlar

keltirilgan. Bu manbalar orqali biz madrasalarning faqat tashqi ko‘rinishi emas, balki ichki hayoti, ta’lim tizimi va ijtimoiy roli haqida ham tasavvurga ega bo‘lamiz.

Xulosa qilish mumkinki, Nodirabegimning me’moriy merosi — bu ayol rahbarning ma’rifatga, san’atga va xalqiga bo‘lgan sadoqatining timsolidir. U qurdirgan madrasalar nafaqat diniy ta’lim maskani, balki o‘z davrining madaniy va ilmiy markazlari bo‘lgan. Bu inshootlar orqali Nodirabegim o‘zbek ayolining zakovati, tashabbuskorligi va estetik didini tarix sahnasiga olib chiqdi. Bugungi kunda ushbu madrasalar turizm, ilmiy tadqiqot va madaniy merosni saqlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Nodirabegim siymosi esa o‘zbek tarixida ayol liderlikning yorqin namunasiga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Sharafuddinov, O.** *O‘zbek ayollari tarix sahnasida.* — Toshkent: Fan, 1998.
2. Nodirabegimning siyosiy va madaniy faoliyati haqida muhim tahliliy ma’lumotlar.
3. **Qayumov, A.** *Nodirabegim: Shoira va davlat arbobi.* — Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
4. Shoiraning ijodi, madrasalar qurilishi va ayol liderlik masalalari yoritilgan.
5. **Razzoqov, H.** *Nodira.* Musiqali drama. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1982.
6. Nodirabegim siymosining badiiy talqini va tarixiy konteksti.
7. **Yormatov, K. & Melkumov, M.** *Nodirabegim* (film stsenariysi). — O‘zbekfilm, 1975.
8. Me’moriy obidalar va saroy hayoti sahnalashtirilgan.
9. **“Majmuai shiroyi” — Mavlono Fazliy Namangoniy.**
10. XIX asr Qoqon adabiy muhitidagi shoirlar haqida tazkira, Nodirabegimning ijodiy doirasi kontekstida.

TABLE OF CONTENTS

1	RESEARCH INFO FOLK BOOKS IN THE WORK OF FRATERNAL PEOPLES Rahmatova Dilfuza Ahmedovna, Axrorova Mahina Avazovna, Saidova Shoxista Alisher qizi	3–9
2	USING ANSWER REPLICATION WHILE TEACHING SPEAKING IN FOREIGN LANGUAGE Shoazizova Aziza Shomurod qizi	10–12
3	TARJIMADA TABU: LINGVOMADANIY TO‘SIQLAR Madina To‘xtamurodova	13–16
4	“YO‘QOTILGAN AVLOD” MUAMMOSI ERICH MARIA REMARKNING “G‘ARBIY FRONTDA O‘ZGARISH YO‘Q” ASARI MISOLIDA G‘iyosov Mirali	17–19
5	KO‘NGIL TIMSOLI: TASAVVUFIY-FALSAFIY ASOSLAR VA ADABIY AN‘ANA (Bobur lirikasi misolida) Qahharova Dilafro‘z Abdug‘afforovna	20–32
6	Named Entity Recognition for Confidential and Military Texts in the Uzbek Language Obidjon Bozorov	33–37
7	ONA TILI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI Daminova Dilbar Melimurodovna	38–41
8	OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA “UNIVERSITET 4.0” MODELINING PEDAGOGIK JIHLARI Yodgorova Sehriyo	42–44
9	ITALIYAN BADIY ASARLARIDAGI REALIYALAR VA ULARNING TARJIMA JARAYONIDAGI AHAMIYATI Vasliddinova Gulmira Rustam qizi	45–48
10	ETNOTOPONIMLAR VA ULARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA) Qurbonova Maftuna Ibroyim qizi	49–51
11	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA ADIBLAR IJODINING BADIY TALQINI (SHAYBONIYXON IJODI MISOLIDA) Ruziyeva Dilnoza Furqatovna	52–55

12	UMUMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA DARS JARAYONIDA IJTIMOYIY SHAKLLARDAN FOYDALANISH. Malikova Madina Abduraxmon qizi	56–58
13	MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATIDA DOSTONLARNI O'QITISHDA SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH Xurramova Dilrabo Alisher qizi	59–64
14	THE TYPES OF FATHER FIGURES IN LITERATURE: A COMPARATIVE STUDY Sotvoldiyeva Mohinur Xazratullo qizi	65–69
15	ИНТЕГРАЦИЯ САД-СИСТЕМ В ПРОЦЕСС САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ЧЕРЧЕНИЮ: ВОЗМОЖНОСТИ И ВЫЗОВЫ Мамурова Дилфуза Исламовна	70–74
16	DIGITAL DIDACTIC PROVISION OF TEACHING INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGY IN LOGISTICS SYSTEMS Ulughmurodova Nargiza Norovna	75–78
17	THE SYNTHESIS OF THE NARRATOR AND THE ARTISTIC IMAGE AS AN AESTHETIC PRINCIPLE IN THE ESSAY Kamalova Aziza	79–81
18	FRANSUZ MAQOLLARIDA PRAGMATIK AKTLARNING IFODALANISHI Norboyeva Nuriniso	82–85
19	“GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” DOSTONI MATNIDA UCHRAYDIGAN MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK AHAMIYATI Dildora Noraliyeva	86–89
20	O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORATINI TAHLIL QILISHDAGI XUSUSIYATLAR Sherzod Tashpulatov	90–92
21	NODIRABEGIM QURDIRGAN MADRASALAR: ME‘MORIY MEROS VA MA‘NAVIY BOYLIK Shahzoda Temirova	93–95
	OUTLINE	96-97